

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**



**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti**

«TASDIQLAYMAN»
Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani, i.f.n., dotsent
_____ **F.B.Ahrorov**
«____» _____ **2014 yil**

«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası
5610100-«Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish» yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: «Mehnatga haq to'lash hisobi va tahlili (Payariq tumani fermer
xo'jaliklari misolida)»**

**Bajardi: 5610100-«Fermer xo'jaligini
boshqarish va yuritish» yo'nalishi
4-bosqich talabasi**

Xudoyberdiev Said

Ilmiy rahbar, i.f.d., dotsent:

Aliqulov A.

**Bitiruv malakaviy ish
muhokama qilindi va himoyaga
ruxsat berildi**

Kafedra mudiri, i.f.d.

_____ **A.Alikulov**

«____» _____ **2014 yil**

SAMARQAND – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI.....	7
2. FERMER XO'JALIKLARIDA RESURSLAR SALOHİYATI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	16
2.1. Yer-suv resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi.....	16
2.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi.....	22
2.3. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi.....	26
3. FERMER XO'JALIKLARIDA MEHNAT HAQI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH.....	31
3.1. Mehnat haqining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi roli va ahamiyati hamda mehnatga haq to'lashning shakllari, mehnat haqi fondi va undan samarali foydalanish.....	31
3.2. Mehnat va ish haqini boshlang'ich hujjatlarda rasmiylashtirish va umumlashtirish.....	39
3.3. Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob – kitoblarning analitik va sintetik hisobini takomillashtirish.....	44
3.4. Fermer xo'jaliklarida mehnat haqidan ajratma va to'lovlar hisobini yuritish xususiyatlari.....	49
4. FERMER XO'JALIKLARIDA MEHNATGA HAQI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH.....	55
4.1. Fermer xo'jaliklarida mehnat haqi va mehnat haqi fondi tahlil qilishni takomillashtirish.....	55
4.2. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish Usullari.....	60
5. FERMER XO'JALIKLARIDA XAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.....	65
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	72

KIRISH

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlardan biri, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ularda mehnat unumdorligini va mehnat haqini oshirishga alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Shu maqsadda, Respublikamizda fermerlar Kengashlari tuzildi va ularning vazifalari belgilab berildi. "Bugungi kunda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va qayta tashkil etish, ularga er uchastkalarini uzoq muddatga ijaraga berish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va ularning faoliyat ko'rsatishiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini qabul qilish bilan bog'liq deyarli birorta masala fermerlar kengashlarining bevosita ishtirokisiz hal etilishi mumkin emas"¹.

Fermer xo'jaliklarini barqaror faoliyat yuritishlariga yaratilayotgan imkoniyatlar bilan birga, ishlovchilarning farovonligi va real daromadlarini ko'paytirishga ham alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida yildan yilga qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga olib kelmoqda. "2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.... Xususan, g'alla etishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1-marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2-marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

O'tgan 2013-yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko'rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot etishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi etkazib berildi"²

Mehnat bilan band aholi daromadlarining asosiy qismi tadbirkorlik faoliyatidan olinishi bilan birga, ularning mehnat haqlari ham oshirilib borilmoqda.

1Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizasiya yo'llini qat'iyat bilan davom ettirish. - T.: "O'zbekiston", 2013. – B.8

2. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – T.: O'zbekiston, 2014. – B. 3.

«Barchamizga ma'lumki, aholi ish haqi va daromadlarining o'sish sur'ati eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi... Biz har uch yilda ish haqini 2 - 2,5 barobar oshirishni o'z oldimizga muhim strategik vazifa qilib qo'yganmiz. SHu tariqa, aholining xarid qobiliyatini hisobga olgan holda, biz yaqin yillar ichida xalq farovonligi va daromadlarini ta'minlash bo'yicha yuksak marralarga erishayotgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz»³. Fermer xo'jaliklarida mehnat bilan band aholining daromadlarini oshirish fermer xo'jaliklarining daromadiga bog'liqligini hamda bevosita mahsulot tannarxiga ta'sir etishini hisobga oladigan bo'lsak, fermer xo'jaliklarining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, mahsulotlarning raqobatbardoshligi ta'minlanishini hisobga olgan holda oshirish lozim bo'ladi. SHu bilan birga, mehnat haqini oshirishda xodimlarning malakasi, ishlab chiqarishga qo'shayotgan hissasi ham hisobga olinishi lozim. Bundan tashqari, fermer xo'jaliklarida mehnat haqi bilan bog'liq ajratma-yagona ijtimoiy to'lov ham mavjud bo'lib, bu ajratma bevosita mahsulot tannarxiga kiritilib, mehnat haqi fondining ko'payishi bilan yagona ijtimoiy to'lov summasi ham ko'payib, mahsulot tannarxi oshadi. Tannarxni oshishi fermer xo'jaliklari daromadlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilib, foydani kamaytirib, fermer xo'jaliklarining to'lov qobiliyatini zaiflashuviga va xo'jalik munosabatlarida fermer xo'jaliklari manfaatlariga putur etishiga olib keladi. Natijada, mehnat haqini fermer xo'jaliklari manfaatlariga va xodimlarning moddiy manfaatdorligiga mos ravishda oshirib borish muammosi dolzarblik kasb etadi.

Ushbu muammolarni hal etishda fermer xo'jaliklarida mehnat haqi hisobi va tahlilini to'g'ri yo'lga qo'yish va amalga oshirish, tahlil ma'lumotlari bilan boshqaruvchilarni o'z vaqtida ta'minlash katta rol o'ynaydi. Tahlil natijasida olingan axborotlar asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlari mehnat haqini o'z vaqtida va to'liq buxgalteriya hujjatlarida va hisob registrilarida aks ettirish bilan birga, mehnat haqini bo'yicha to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishni ta'minlab, mehnat unumdorligini oshirishga ijobiy ta'sir qiladi. SHu bilan birga, fermer

3 Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. -t.16.-T.: "O'zbekiston", 2008. -49-bet.

xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash fondini rejalashtirish tartibini o'zgartirish bilan bir qatorda mehnatga haq to'lashning ilg'or shakllarini qo'llashga, mehnatga haq to'lashning rag'batlantirish rolini kuchaytirishga, erishilgan yuqori natijalardan moddiy manfaatdorlikni oshirishga alohida etibor berilishi ham mehnat unumdorligini oshirishga jobiy ta'sir etishi e'tiborga olinishi lozim. Bular tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyatli ekanligini belgilab beradi.

SHu bilan birga qayd etish lozimki, iqtisodchi olimlarimiz tomonidan fermer xo'jaliklarida mehnatga haqi hisobi va tahlili yagona bir tizimga keltirilgan holda alohida ilmiy-tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi - iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaliklarida mehnatga haqi hisobi va tahlilini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

1. Mehnat va unga haq to'lashning dastlabki, sintetik va analitik hisobini takomillashtirish;

2. Mehnatga haq to'lash fondi shakllanishi va sarflanishini takomillashtirish.

3. Mehnat va unga haq to'lash bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilishni takomillashtirish.

4. Mehnat unumdorligi tahlil qilish asosida, uni yanada oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

5. Moliyaviy hisobot va xo'jalik rahbariyati uchun o'z vaqtida mehnat haqi hamda mehnat unumdorligi ma'lumotlarini umumlashtirish va taqdim etish.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun ilmiy-tadqiqotning tahlil va sintez, muammoga mantiqiy va tizimli yondashuv, statistik va qiyosiy tahlil, taqqoslash, guruhlash kabi usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti Payariq tumani fermer xo'jaliklari hisoblanib, predmeti esa fermer xo'jaliklarida mehnat haqi hisobi va tahlili jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash jarayonida fermer xo'jaliklarida mehnatga hak to'lash hisobi, mehnat haqi va mehnat unumdorligi tahlilining hozirgi holati bo'yicha umumiy xulosalar qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritildi. Ishlab chiqilgan tavsiya va takliflarni amaliyotda qo'llanilishi fermer xo'jaliklarida mehnatga hak to'lash hisobini, mehnat haqi va mehnat unumdorligi tahlilini takomillashtirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ishlovchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Mehnat haqini ishlovchilar is'temolini qondiradigan darajada to'lash, ishlovchilarning mehnatga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirib, mehnatning sifatli va samarali bo'lishiga olib keladi. Natijada mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligi oshadi.

Shu jihatdan olganda, fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash hisobi va tahlili bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda alohida e'tibor bilan qaralmoqda.

Quyida ushbu malakaviy bitiruv ishini bajarish davomida foydalanilgan me'yoriy – huquqiy hujjatlar va o'quv – ilmiy adabiyotlarga sharh berib o'tamiz:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahrirda). Fermer xo'jaligi to'g'risida. 2004 yil 26 avgust.

Ushbu Qonunning maqsadi fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning 3 – moddasida «Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subektdir» deb ta'rif berilgan. SHuningdek qonunda fermer xo'jaligini tashkil etish shartlari (5-modda), fermer xo'jaligini tashkil etish tartibi (6-modda), fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish (7-modda), fermer xo'jaligining ustavi (8-modda), fermer xo'jaliklari yuritish uchun er uchastkalari berish tartibi (11-modda), qishloq xo'jaligi kooperativlari (fermer xo'jaliklari) a'zolari tomonidan fermer xo'jaligini tashkil etish xususiyatlari (12-modda), erdan foydalanish (13-modda), er uchastkasidan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq (14-modda), suvdan foydalanish (15-modda), fermer xo'jaligining huquqlari (16-modda), fermer xo'jaligining majburiyatlari (17-modda), fermer xo'jaligining mablag'lari va hisob-kitoblari (20-modda), fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyati (22-modda), mahsulotni

fermer xo'jaligi tomonidan realizasiya qilish tartibi (24-modda), fermer xo'jaligini kreditlash va sug'urtalash (26-modda), fermer xo'jaliklarini davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab – quvvatlash (29-modda), fermer xo'jaligini tugatish asoslari (32-modda) kabilar alohida moddalarda belgilab berilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom.

Mazkur Nizom xo'jalik yurituvchi subektlar – yuridik shaxslarning, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi. Nizom buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo'ladigan tafovutlar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Xo'jalik yurituvchi subektlarning raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida ular faoliyatining xarajatlarini hisoblab chiqish va moliyaviy natijalarini aniqlash buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi hisoblanadi. Soliq solinadigan daromad (foyda) xo'jalik yurituvchi subektlar xarajatlarining ayrim moddalarini soliq haqidagi qonunlarga muvofiq soliq solinadigan bazaga kiritish yo'li bilan aniqlanadi.

Ushbu nizomni qabul qilinishi korxonalar daromadlari va harajatlarini aniq belgilangan guruhlariga ajratib hisobga olish hamda moliyaviy natijani shakllantirish tartibini belgilab berdi. Jumladan, xarajatlarni qaysilari mahsulot tannarxiga kiritiladi, qaysilari davr xarajatlariga olib boriladi. Bu mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari ushbu nizomda moliyaviy natijalarni besh ko'rsatkichi belgilangan bo'lib, ularning har birini ta'rif va aniqlashni hisob – kitobi berilib, bu xalqaro andozalarga mos keladi.

3. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. -T.: O'zbekiston, 2014. -34 b.

Ushbu asarda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi yoritilgan. Unda mamlakatni rivojlantirish, yangilash, modernizatsiya qilishning to'g'ri tanlangan strategiyasi, qabul qilingan dasturlarni bajarish borasida o'tgan yilda kuch va imkoniyatlarning safarbar qilinishi tufayli iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning barqaror sur'atlarini, xalq bardamligi va farovonligini oshirishni ta'minlashga muvaffaq bo'linganligi qayd etilgan.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,0 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,8 foizga oshganligi aytib o'tilgan. SHuningdek, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlanib, eksport hajmi sezilarli ravishda o'sganligi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib borayotganligi, 2013-yilda eksport hajmining o'sishi 10,9 foizdan iborat bo'lganligi, tashqi savdo faoliyatidagi ijobiy saldo 1 milliard 300 million dollarni tashkil etganligi, qimmatbaho metallar narxining keskin pasayganiga qaramasdan, mamlakatimiz oltin-valyuta zaxirasi o'tgan yil davomida 2 foizga ko'payganligi ta'kidlangan.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida hozirgi kunda 80 mingdan ortiq, shu jumladan 18 mingdan ortiq ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani paxta etishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin

tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla etishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1-marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2-marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

O'tgan 2013-yilda dehqon va fermerlarning fidokorona mehnati bilan 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot, 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi etishtirildi.

4. Ismoilov A., Murtazaev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti Darslik. Toshkent, 2005.

Ushbu darslik 4-bo'lim, 33-bobdan iborat bo'lib, darslikning birinchi bo'limi qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining umumiy masalalari, ikkinchi bo'limi qishloq xo'jaligi resurslari va ulardan samarali foydalanish, uchinchi bo'limi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi va to'rtinchi bo'limi o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari samaradorligini oshirish imkoniyatlariga bag'ishlanadi.

Darslikning 18-bobida qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxi va uni pasaytirish imkoniyatlariga bag'ishlangan bo'lib, bu bobda ishlab xarajatlari va tannarx tushunchasi, mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tashkil topishi, mahsulot tannarxini hisoblashning uslubiy asoslari hamda mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari keng yoritilgan. Jumladan, tamaki ekinlari etishtirish va yig'ib-terib olishdagi ishlab chiqarish xarajatlari, ya'ni 1 sentner mahsulot tannarxini hisoblash usullari ko'rsatib o'tilgan. SHuningdek, darslikning 22-bobi tamakichilik samaradorligini oshirish imkoniyatlariga bag'ishlanib, bunda tamakichilikning xalq xo'jaligida ahamiyati, uning rivojlanishi, hozirgi ahvoli, tamakichilik istiqbollari hamda tamakichilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari to'g'risida so'z yuritilgan.

5. B.Xasanov, A.Xoshimov. Boshqaruv hisobi. Darslik.-T.: Yangi nashr, 2011.

Ushbu darslikda bugun eski ma'muriy-buyruqbozlik, taqsimlash tizimiga xos boshqaruv tuzilmalari o'rniga boshqaruvga yangicha yondoshuvlar, uslub va

vositalarga ega bo'lgan zamonaviy bozor mexanizmlari, iqtisodiy ta'sir va rag'batlantirish omillari talab etilayotgani bayon qilingan. Bunday sharoitda buxgalteriya hisobining istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblangan boshqaruv hisobining ahamiyati beqiyos darajada ortib boradi. Boshqaruv hisobi xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, ishlab chiqarish zararsizligining tahlili, byudjetlashtirish, transfert bahoni shakllantirish, sengmentlar bo'yicha hisob va hisobot kabi bo'limlardan iborat. SHu bilan birga boshqaruv hisobida mehnat haqi, materiallar, asosiy vositalar va xarajatlar hisobi olib borilishi bilan birga, ularni tahlili ham amalga oshiriladi. Tahlil natijasida olingan axborotlar korxona boshqaruvchilar va menedjerlariga etkazilib, tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilishda hamda korxona faoliyati bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalaniladi. Olingan axborotlarni o'z vaqtida axborotdan foydalanuvchilarga to'g'ri, to'liq va aniq holda etkazish boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirib, fermer xo'jaliklarini barqaror faoliyat yuritishlariga olib keladi.

6.Stivoldiev A. va boshqalar. Finansovyy i upravlencheskiy uchet. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2012.

Ushbu darslikda buxgalteriya hisobining bir-biri bilan bog'liq va bir-biri to'ldiruvchi qismlari hisoblangan boshqaruv va moliyaviy hisob asoslari yoritilgan. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy hisob bilan birga boshqaruv hisobini ham yuritilishi buxgalteriya hisobini uzluksiz va yoppasiga olib borish imkanini berib, boshqaruvchilarni korxona faoliyati bilan bog'liq axborotlar bilan to'la ta'minlash bilan birga, xo'jalik jarayonlari ustidan va mulkni saqlanishi hamda ulardan samarali foydalanish bo'yicha nazorat o'rnatish imkonini beradi. Darslikda pul mablag'lari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, ishlab chiqarish zahiralari, ishlab chiqarish xarajatlari, tayyor mahsulotlar, majburiyatlar, korxona kapitali, moliyaviy natijalar hisobi keng yoritilgan. SHuningdek, xo'jaliklar faoliyatining yakunini o'zida aks ettiruvchi moliyaviy hisobotlarni to'zish, tayyorlash va taqdim etish masalari ham yoritilgan.

Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi to'g'ri tashkil etilishi va yuritilishi mulkdan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni barqaror yuritish, mahsulot tannarxini tshliq boshqarish, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, umuman erkin raqobat sharoitida barqaror faoliyat yuritishiga olib keladi.

7. Qudratov T. va boshqalar. Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining tahlili. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2010.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni yanada samarali rivojlantirish uchun ularning faoliyatini barcha tomonlarida sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlar va ularning natijalarini har taraflama chuqur o'rganish natijasida mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni ishlab chiqarishga jalb etish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish zarur. Ushbu muammolarni hal qilishda iqtisodiy tahlilning roli nihoyatda kattadir. Ushbu qo'llanma 13-bobdan iborat bo'lib, uning 8-bobi bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahliliga bag'ishlanadi. Bu bobda tahlilning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxini aniqlash, hisoblash tartibi aniq misollar bilan yoritilgan. Bundan tashqari ushbu bobda tannarxni xarajat moddalari bo'yicha omilli tahlil qilish usullari va yo'llari batafsil bayon qilingan.

Umuman olganimizda, ushbu o'quv qo'llanmada fermer xo'jaliklarlari xo'jalik faoliyatini qamrab oluvchi barcha ko'rsatkichlarini aniqlash, tahlil qilish va tahlil asosida tegishli xulosa va takliflar berish to'la yoritilgan bo'lib, bulardan bitiruv ishi yozishda keng foydalanildi.

8. Ekonomika predpriyatiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Akademik V.M.Semenov tahriri ostida. - SPb.: Piter, 2010.

Ushbu darslik ikki bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'lim "Iqtisodiyot korxonaning faoliyat ko'rsatishining asosi" deb nomlanib, uning to'rtta bobida korxonaning bozor iqtisodiyoti tizimidagi o'rni, korxonaga mikro va makro muhitning ta'siri, korxonada tovar siyosatining asoslari hamda korxonaning tarkibiy tuzilish shakllari yoritilgan.

Ikkichi bo'lim "Korxonaning resurslari va ulardan foydalanish natijalari" deb nomlanib, o'n bitta bo'limdan iborat. Ushbu bo'limda korxonaning mavjud resurslari salohiyati va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Jumladan, darslikning to'qqizinchi bobida korxonaning xarajatlari keng yoritilib, unda xarajatlarning mohiyati va turlari, xarajatlar smetasi va kalkulyasiyasi, foyda – korxona faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri ekanligi yoritilgan.

Ushbu darslikdan bitiruv malakaviy ishini bajarishda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo'llari, tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash, mehnat hnat haqini tahlil qilish hamda tegishli xulosalarni shakllantirishda keng foydalanildi.

9. Niyozov S. Boshqaruv hisobida xarajatlar klassifikatsiyasi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012, №1. – 43-44 b.

Muallif korxonani boshqarish uchun xarajatlarning korxona bo'yicha umumiy hajmi haqidagi ma'lumotlarning o'zi etarli emas, deb hisoblaydi. Buning uchun xarajatlarning paydo bo'lish joylari, kalkulyasiya obektlari, mas'uliyat markazlari va boshqa belgilari bo'yicha ham guruhlangan axborotlar zarur deydi. Boshqaruv hisobini tashkil qilish maqsadida xarajatlarni klassifikatsiya qilishda e'tiborni uchta mezonga, ya'ni korxona foydasiga o'tkazish davriga qarab, ishlab chiqarish hajmiga qarab va tannarxga kiritilish usuliga qarab tashkil etish lozim. Muallif xarajatlar klassifikatsiyasiga to'g'ri yondoshish boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda monitoringini o'tkazish maqsadida qo'llaniladigan axborotlar – ma'lumotlar asosida xarajatlar tarkibini hamda natijalarini chuqur tushunishga, mohiyatiga etib borishga xizmat qiladi, deb ta'kidlaydi. SHu bilan birga, xarajatlarni to'g'ri turkumlash ular hisobini to'g'ri olib borish, xarajatlarni nazorat qilish asosida unusiz xarajatlarga yo'l qo'ymaslikka, mahsulot tannarxini asossiz ravishda oshib ketishini oldini olishga, mahsulot ishlab chiqarishdan olinadigan foydani ko'payishiga olib keladi.

10. Aralov X. Dehqon xo'jaliklarining mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2010 №2. 27-28 b.

Muallif aholi va uning ijtimoiy guruhlarining yalpi xarajatlari – bu turli xo'jalik subektlaridan tovar va xizmatlarni sotib olish xarajatlari summasi, moliya kredit tizimlariga to'lovlar, shaxsiy yordamchi xo'jalik mahsulotlaridan iste'mol va ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilganliklari va ko'rilgan zararlar, qarzlarni yopish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun to'langan to'lovlarda ifodalanadi deb ta'rif beradi. Yalpi xarajatlar, uning tarkibi va dinamikasi – bu iqtisodiy rivojlanish darajasini, aholi turmush darajasini ifoda etuvchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Yalpi xarajatlarning o'rni belgilab beruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri – bu uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan hissasi hisoblanadi, deb fikr yuritadi. SHuningdek, muallif tannarxni pasaytirish bo'yicha belgilangan parametrlarga erishish uchun rahbar va mas'ul xodimlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaydi.

11. Qosimov M. Fermer xo'jaliklarining texnologik barqarorligini ta'minlash. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2013. -№12. –B. 17.

Mustaqillik yillarida fermer xo'jaliklarini har tomonlama barqaror rivojlantirish bo'yicha qonuniy hamda me'yoriy asoslar yaratilib, ular doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Fermer xo'jaliklarining salohiyati baholanayotganda ularning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligi hisobga olinadi va bunda iqtisodiy barqarorlikka katta e'tibor qaratiladi. Bugungi kunga kelib esa ekologik barqarorlik tushunchasi ham qo'llanila boshlandi.

Muallif o'z maqolasida texnologik barqarorlik tushunchasiga izoh berar ekan, «fermer xo'jaligining texnologik barqarorligi deganda, uning fan va texnika yutuqlarini, yangi texnologiyalarni qabul qila olish va ishlab chiqarishga joriy qilish imkoniyati tushuniladi» deb ta'rif beradi. Fermer xo'jaligining mazkur imkoniyatiga ega bo'lishi esa unda bir qancha xususiyatlarning mavjud bo'lishiga bog'liq deydi.

12. Abduvohidov F., Sotivoldieva D. Mahsulotlar tannarxi va uning buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari.//Bozor, pul va kredit. 2011 №4. – 53-55 b.

Mualliflar ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish xarajatlarining har bir moddasi ustidan kundalik nazoratni o'rnatish, ortiqcha sarflarga yo'l qo'ymaslik buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri ekanligi, bu xarajatlarni umumiy ishlab chiqarish xarajatlari sifatida hisobga olinishini ta'kidlab, umumiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobida ayrim muammolar, ya'ni umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobini tashkil etish bilan bog'liq muammolar va taqsimlash bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatishgan. Bu muammolarni hal etishda umumiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida hisobga olinayotgan mashina va va asbob – uskunalarni saqlash va foydalanish xarajatlarini buxgalteriya hisobining milliy schyotlar rejasiga yangi 2400-«Ishlab chiqarish vositalarini ta'mirlash xarajatlari hisobi» schyotini kiritish va ushbu schyotga korxona bo'yicha sarflangan ta'mirlash xarajatlari to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish, bu schyotning debet tomonida jami haqiqiy ta'mirlash xarajatlari va kredit tomonida ushbu xarajatlar kalkulyasiya obektlariga hisobot oyi oxirida taqsimlanganda aks ettirish maqsadga muvofiq, deb hisoblashadi.

2. FERMER XO'JALIKLARIDA RESURSLAR SALOHIYATI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

2.1.Yer-suv resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi

Yer barcha ishlab chiqarilayotgan boyliklarning manbasi ekanligi ko'p martalab e'tirof etilgan. Yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Ya'ni kishilar yerga ishlov berish yo'li bilan ishlab chiqarishga ta'sir etadi. Yer bir paytda mehnat predmeti va mehnat quroli sifatida qishloq xo'jaligida yuzaga chiqadi. Yer har bir xalqning asosiy boyligidir.

O'zbekiston Respublikasi 447,4 mln. gektar yer maydoniga ega. Respublika qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydonlarining 81 foizi yoki 26,6 mln. gektarini yaylov va pichanzorlar tashkil etadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 16 foizi haydaladigan yerlardir. Mamlakatning lalmikor yerlari 6,6 mln. gektar. Shundan 3,0-3,2 mln. gektari haydaladi va ularda lalimi dehqonchilik bilan shug'ullaniladi. Qolgan qismidan namlikning juda kam bo'lganligi sababli foydalanilmaydi. Yuqoridagilardan hulosasi shuki Respublikada mavjud yer maydonlaridan maksimal foydalanishga e'tiborni kuchaytirish zarur.

Respublika yerining bir qismi shaharlar va aholi punktlari, bir qismi transport va kommunikatsiyalar, daryo va suv havzalar bilan band yerlar, o'rmon xo'jaligi yerlari, harbiy maqsadlar uchun ajratilgan yerlar va davlat zahira fondidan iborat. Biz uchun eng muhimi, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar hisoblanadi. Respublikaning yer manbalari cheklangan va u qishloq xo'jaligi tarmog'ida foydalanadigan resurs sifatida kamayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 8-moddasida yer fondi toifalari belgilab qo'yilgan. "O'zbekiston Respublikasining yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi:

– qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tayin etilgan yerlar – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan

(lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dov-darxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo'linadi;

- aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari - shaharlar va posyolkalar shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;

- sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar – ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;

- tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, realizatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar – alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalanadigan yerlar;

- tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tarixiy-madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar;

- o'rmon fondi yerlari -o'rmon bilan qoplangan, shuningdek o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyoji uchun berilgan yerlar;

- suv fondi yerlari - suv ob'yektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv ob'yektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;

- zahira yerlar.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tayin etilgan yerlarga haydaladigan yerlar, yaylovlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzorlar kiradi.

Qishloq xo'jaligida yer fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) Yer tabiatda chegaralangan. Uni insoniyat xohlaguncha ko'paytirish imkoniga ega emas. Demak, yagona to'g'ri yo'l – mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishdir. Bundan tashqari sanoatning, kommunikatsiyaning o'sishi aholining ko'payishi tabiiy holda bir kishiga to'g'ri keladigan yer maydoni qisqarishiga olib keladi.

2) Yer – tabiat mahsuli. Bu ham bizning oldimizga qator vazifalarni qo'yadi. Uni yaratishda inson mehnati aralashmagan. Albatta bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib yerning bahosi shakllanadi.

3) Yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Bu degani yerdan o'z bilganimizcha abadiy foydalanish mumkin degani emas. Balki yerdan to'g'ri va oqilona foydalangandagina u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun abadiy bo'lishi mumkin.

4) Turli joylarda mavjud yer maydonlari turli sifatga, ya'ni unumdorlikka ega. yerning tabiiy, sun'iy va iqtisodiy unumdorligi bir – biridan farqlanadi. Tabiiy unumdorlik – yerning inson aralashuvisiz tabiat tomonidan vujudga kelgan hosil bera olish qobiliyatidir. Inson aralashuvi natijasida vujudga kelgan unumdorlik sun'iy unumdorlikdir. Bu unumdorlikni oshirish imkoniyatlari katta. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublika yerlarining tabiiy unumdorligi pasayib bormoqda. Tuproqda mavjud bo'lgan gumus moddasining pasayishi kuzatilmoqda.

5) Yerni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin emas. Demak qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishni yaxshilash uchun har bir xo'jalik (shirkat, fermer va dehqon) hududida qanday sifatga ega yer bo'lsa shunga qarab ekin turlarini joylashtirish lozim. Bu xususiyat qishloq xo'jaligi korxonalariga faoliyat uchun o'rnatiladigan soliq tizimini ishlatishda ham hisobga olinishi talab qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishi obyekti bo'lgan Payariq tumani 1926 yil 29 sentyabrda tashkil topgan bo'lib, tuman markazi Payariq shahri hisoblanadi. Tuman hududi 0,8 ming kvadrat kilometr. Tuman Jizzax viloyati, viloyatning Oqdaryo, Ishtixon, Jomboy, Qo'shrabot tumanlari bilan chegaradosh. Tumandan Samarqandgacha bo'lgan masofa 45 km. Payariq tumanida 9 ta shahar tipidagi posyolkalar, 64 ta mahalla fuqarolari yig'inlari, 11 ta qishloq fuqarolari yig'inlari, 210 ta qishloq aholi punktlari mavjud.

Payariq tuman fermer xo'jaliklari yer resurslarining hozirgi holatini o'rganganimizda quyidagicha bo'lgan (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Payariq tuman fermer xo'jaliklarining yer maydoni holati to'g'risida ma'lumot*

T/r	Yo'nalishi	2011 yil			2013 yil			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, (+,-)		
		Jami fermer xo'jaliklar soni	Jami qishloq xo'jaligida foydalanadigan maydon, ga	o'rtacha bir fermer xo'jaliklar maydoni, ga	Jami fermer xo'jaliklar soni	Jami qishloq xo'jaligida foydalanadigan maydon, ga	O'rtacha bir fermer xo'jaliklar maydoni, ga	Jami fermer xo'jaliklar soni	Jami maydoni, ga	O'rtacha bir fermer xo'jaliklar maydoni, ga
1.	Paxtachilik-g'allachilik	243	19164	78,9	209	19164	91,7	-34	0	12,8
2.	Sabzavotchilik-polizchilik	9	66	7,3	9	66	7,3	0	0	0
3.	Bog'dorchilik-uzumchilik	221	1692	7,7	169	1692	10	-52	0	2,3
4.	Chorvachilik	72	1116,2	15,5	61	1116,2	18,3	-11	0	2,8
5.	Boshqalar	32	392	12,2	21	392	18,6	-11	0	6,4
	Jami:	577	22430	38,9	469	22430	47,8	-108	0	9

***Manba:** Samarqand viloyat Payariq tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011, 2013 yillar ma'lumotlari.

2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Payariq tumanida 2013 yilda jami 469 fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, bu 2011 yilga nisbatan 34 taga kamdir. Bu Prezidentimizning 2012 yil oktyabrdagi farmoniga muvofiq fermer xo'jaliklari yer maydonlarini maqbullashtirish natijasida bo'lgan. Ularga jami 22430 gektar yer maydoni ajratilgan bo'lib, 2013 yilda o'rtacha bir fermer xo'jaligiga 47,8 gektar yer maydoni to'g'ri kelgan. Shundan paxtachilik-g'allachilik yo'nalishida 209 ta, bu jami fermerlarning 44,6 foizi, sabzavotchilik-polizchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklar soni 9 ta, bu jami fermer xo'jaliklarning 1,9 foizi, bog'dorchilik-uzumchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklar 169 ta, bu jami fermer xo'jaliklarning 36 foizi, chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklar 61 ta, bu jami fermer xo'jaliklarning 13 foizi va boshqa yo'nalishdagi fermer xo'jaliklar 21 ta, bu jami fermer xo'jaliklarning 4,5 foizini tashkil etadi. Tuman fermer xo'jaliklariga ajratilgan yer maydonining 85,4 foizi bevosita paxtachilik-g'allachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklarida bo'lib, bundan ko'rinib turibdiki tuman paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan tumanlardan biridir.

Payariq tumani "Karim bobo" fermer xo'jaligi bo'yicha yer-suv resurslaridan foydalanish holati ham o'rganildi.

"Karim bobo" fermer xo'jaligi tumanning g'allachilik-paxtachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklaridan biridir. "Karim bobo" fermer xo'jaligi tuman markazidan 15 km, viloyat markazidan 42 km uzoqlikda joylashgan.

Fermer xo'jalikning tabiiy sharoiti o'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga qulay bo'lib, yoz kunlari eng issiq kunlari $+40^{\circ}\text{S}$ + 42°S issiq bo'lib, sovuq kunlari esa qish oylarida -12°S – 14°S sovuqni tashkil etadi. Xo'jalikning tuproq sharoiti dehqonchilik qilinadigan yerlarning asosiy qismi bo'z tuproq hisoblanib, ishlab chiqarish texnologiyasiga rioya qilinsa, ekilgan ekindan yuqori hosil olish mumkin. Payariq tumani fermer xo'jaliklarida ekinlar yalpi hosili dinamikasini o'rganimizda quyidagicha bo'lgan (2.1.3-jadval)

2.1.3-jadval

Payariq tumani fermer xo'jaliklarida ekinlar yalpi hosili dinamikasi*

Ekin-larning turlari	2011 yil			2013 yil			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)		
	Ekin maydoni, ga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, t	Ekin maydoni, ga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, t	Maydon hisobiga	Hosildorlik hisobiga	Yalpi hosil bo'yicha
G'alla	13140	56,0	73571	14219	55,9	79527	1079	-0,1	5956
Paxta	14683	23,8	34885	15229	22,3	33948	546	-1,5	-937
Sabzavot	1286	227,6	29275	2187	258,0	56422	901	30,4	27147
Kartoshka	35	304,5	1066	850	187,5	15940	815	-117	14874
Poliz	105	261	2745	425	171	7280	320	-90	4535
Meva	866	130,4	11291	866	51,2	4435	0	-79,2	-6856
Uzum	2325	120,1	27917	2325	48,7	11330	0	-71,4	-16587

***Manba:** Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi 2011, 2013 yillar ma'lumotlari

2.1.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2013 yilda 2011 yilga nisbatan tuman fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jalik mahsulotlaridan g'alla (5956 tonna), sabzavot (27147 tonna), kartoshka (14874 tonna), poliz (4535 tonna) yalpi hosili oshgan bo'lib, bu asosan ekin maydonlarining kengayishi hisobiga bo'lgan.

Erda foydalanishning darajasiga va samaradorligiga ko'pgina omillar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Ularning eng asosiylaridan biri yerlarning tarkibini yaxshilashdir. Sug'oriladigan yerlarning salmog'ini oshirish, yerda foydalanishning martaliligini ko'paytirish, ilg'or agrotexnologiyalarni qo'llash, tejamkorlik, yangi, serunum texnikalardan foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, serhosil ekin navlarini ishlab chiqarishga joriy etish kabi omillardan to'g'ri foydalanish yerda foydalanishning samaradorligini oshiradi.

2.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi

Ishlab chiqarish jarayonining zaruriy qismi mehnatdir. Mehnat insonga xos xususiyat. Insonning jismoniy va aqliy faoliyati mehnat hisoblanadi. Ishni traktorlar, mashinalar, ishchi hayvonlar bajarishi mumkin. Mehnat esa faqat ongli faoliyat natijasidir. Ishlab chiqarishning samaradorligi ko'p jihatdan mehnatning holatiga bog'liq. Agarda mehnat ongli ravishda qilinayotgan bo'lsa, uning unumdorligi yuqori bo'ladi. Har bir mamlakat aholisining mehnat qilish qobiliyatiga ega qismi uning mehnat resurslarini tashkil etadi. O'zbekiston aholisining 60 foizidan ko'prog'i mehnat qilish qobiliyatiga ega.

Qishloq xo'jaligi korxonalari mehnat resurslari asosiy va yordamchi guruhlariga bo'linadi. Asosiy mehnat resurslariga 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, yordamchi mehnat resurslarga 14-16 yoshdagi o'smirlar va nafaqa yoshidagi ayol va erkaklar kiradi. Ulardan asosan qishloq xo'jaligi yilining ayrim davrlarida foydalaniladi. Qishloq xo'jaligi mehnat resurslaridan foydalanish shu tarmoqning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Eng avvalo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mavsumiy xarakterga ega. Natijada ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqib, yilning ayrim davrlarida mehnat resurslarining bo'sh qolish holati yuz beradi. Qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish davrining mos tushmasligi ham mehnat resurslarining vaqtinchalik bekor qolishiga sabab bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida yer asosiy vosita bo'lganligi uchun ishlab chiqarishni joylashtirish, ixtisoslashishni tanlashga ta'sir qiladi. Bu esa, o'sha ishlab chiqarish turi talab qiladigan mehnat resurslarini talab etadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish yirik maydonlarda tashkil etiladi. Shunga yarasha mehnatni tashkil etish ham ma'lum talablarga javob beradigan qilib tanlanadi. Qishloq xo'jaligi mehnat resurslari nisbatan past malakaga ega. Ularning bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib o'tish darajalari ham juda past. Bu muammo ham ular bor joyda ishlab chiqarishni, turli xizmat turlarini imkoni boricha maksimal darajada tashkil etishni talab qiladi.

Mehnat resurslari deganda aholining mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan qismi tushiniladi. Qishloq xo'jaligida ular asosiy va yordamchi mehnat resurslariga

bo'linadi. Asosiy mehnat resurslariga mehnat qilish qobiliyatiga ega 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan, erkaklar, yordamchi mehnat resurslariga 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar va nafaqa yoshidagi ayol va erkaklar kiradi.

Mehnat resurslardan foydalanishning darajasi va iqtisodiy samaradorligini aniqlash katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligini to'liq ko'rsata oladigan integral ko'rsatkich yo'q. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligini ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlash maqsadga muvofiq. Ko'rsatkichlar tizimi birgalikda mehnat resurslaridan foydalanishning darajasi va iqtisodiy samaradorligi to'g'risida mukammalroq ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Qishloq xo'jaligida resurslaridan foydalanishning darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:

1) Har bir ishchi xodimning bir yilda ishlagan kunlari. Odatda, qishloq xo'jaligida erkaklar bir yilda 280 kun, ayollar 240 kun ishlasa normal hisoblanadi.

2) Yil davomida ishlashi lozim bo'lgan kundan foydalanish koeffitsienti. Bu haqiqatda ishlagan kunlarni me'yor bo'yicha ishlashi lozim bo'lgan yillik ish kunlari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi. Xo'jalikning mehnat resurslari holatini o'rganish uchun mehnat resurslari balansi tuziladi. Balans ma'lumotlari xo'jalikning iqtisodiy rivojlantirilishida ishlatiladi.

3) Mehnat resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi yil davomida bir ishchi xodim hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdori bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichni sarflangan kishi soatlariga nisbatan aniqlash mehnatning samaradorligini to'g'riroq aniqlash imkonini beradi.

4) Mehnat resurslarning qo'nimsizlik koeffitsienti

$$K_t = \frac{MR_{ab}}{MR_s}$$

Bunda:

K_t – mehnat resurslarning qo'nimsizlik qoeffitsienti;

$MRab$ – o'rganilayotgan davrda o'z arizasiga binoan yoki mehnat qoidalarini buzganligi uchun majburiy bo'shatilganlar soni;

MRs – mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni.

5) Kadrlarni muqimlik (stabillik) koeffitsienti

$$Km = (1 - \frac{MRab}{MRsb} + \frac{MRya}{MRsx}) \times 100$$

Bunda:

Km - kadrlarni muqimlik (stabillik) koeffitsienti

$MRab$ - o'rganilayotgan davrda o'z arizasiga binoan yoki mehnat qoidalarini buzganligi uchun majburiy bo'shatilganlar soni;

$MRsb$ va $MRsx$ – bazis va hisobot yillarda (davrda) korxonada ishlayotganlarning o'rtacha yillik soni.

6) Mehnatni mavsumiylik koeffitsienti

$$MRmk = \frac{MXmaks}{MXo'r}$$

Bunda:

$MRmk$ – mehnatning mavsumiylik koeffitsienti;

$MX maks$ – oylik mehnatning maksimal sarfi;

$MX o'$ – mehnatning oylik o'rtacha sarfi.

7) Ishsizlik darajasi

$$Id = \frac{Is}{IFs(IK)} \times 100$$

Bunda:

Id – ishsizlik darajasi, %

Is – ishsizlar soni, kishi

$IFs (IK)$ – iqtisodiy faol aholi yoki ishchi kuchlari soni, kishi

8) Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi

$$MRt = \frac{MR}{Yer, ga}$$

Bunda:

MRt – 100 gani mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi;

MR – Ishchi xodimlar soni, kishi;

Yer – yer maydoni (jami, ekin, sug'oriladigan yer maydonlari), ga.

9) Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti

$$MRtk = \frac{MRm}{MRr}$$

Bunda:

$MRtk$ - Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti

MRm – mavjud mehnat resurslari soni, kishi;

MRr – rejalashtirilgan ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun talab qilinadigan mehnat resurslari, soni.

Mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanib, ularni har biri mehnat resurslaridan foydalanishning ayrim tomonlarini ifoda etadi. Ularni birgalikda aniqlash va tahlil qilish to'g'ri xulosalar chiqarish va foydali takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi mehnat resurslari mehnatining fond, energetik quvvatlar bilan qurollanish darajasini oshirish ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llaridan biridir. Qishloq xo'jaligida mehnat har bir ekin turi yoki mahsulot turi bo'yicha texnologiyani hisobga olgan xolda zarur vositalar bilan ta'minlanishi kerak. Shu sababli, ayniqsa, kichik texnika ishlab chiqarishni yoki xorijdan sotib olishni yo'lga qo'yish, rivojlantirish talab qilinadi.

Mehnat resurslaridan foydalanish o'rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan kunlari soni, o'rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan soatlari soni, ish kunining o'rtacha davomiyligi va ish vaqti fondi ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi.

Mehnat resurslaridan foydalanishning eng asosiy ko'rsatkichi bo'lib mehnat unumdorligi hisoblanadi. Mehnat unumdorligi oshgan sayin ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori oshib boradi. Mehnat unumdorligi deganda aniq vaqt birligi ichida (1 kishi-soat, 1 kishi-kuni) yetishtirilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hajmi tushuniladi.

Samarqand viloyat Payariq tumanida 2014 yil 1-yanvar holatidagi doimiy aholi soni – 213 895 kishi, shundan shahar joylarda – 67 016 kishi (erkaklar –

32 702, ayollar – 34 314), qishloq joylarda 146 879 kishi (erkaklar – 75 243, ayollar – 71 636) istiqomat qilib kelishmoqda.

2.3. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi

Fermer xo'jaliklar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning muhim omillaridan bo'lib, moddiy resurslar bilan ta'minlanishi hisoblanadi. Har qanday qishloq xo'jalik korxonasi ishlab chiqarish faoliyatini barqaror bo'lishi va uning samaradorligini oshirish uchun moddiy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlangan va ulardan samarali foydalangan bo'lishi kerak.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashganlik darajasi bevosita tarmoqda, xo'jaliklarda mavjud texnikaning miqdori va sifatiga bog'liq. Agar texnikalar yetarli miqdorda bo'lmasa, demak, qishloq xo'jaligi ishlarini agrotexnik muddatlarida bajarish mumkin emas. Bu, o'z navbatida, barcha natijaviy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib kelishi turgan gap. Birgina shu misolning o'zi ishlab chiqarishda moddiy-texnika resurslarining ahamiyati qanchalik katta ekanligini ko'rsatadi. Har qanday tarmoqning moddiy-texnika bazasi ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayoni yuz berishi uchun, asosiy fondlar, xom ashyolar, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyatlari bo'lishi va ular birgalikda faoliyat ko'rsatishi lozim.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi keyingi yillarda yanada mustahkamlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga "Keys", "Magnum", "Class" kabi yuqori unumli texnikalar kirib kelmoqda. Oz bo'lsa-da, fermer va dehqon xo'jaliklarida kichik texnikalar paydo bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi boshqa tarmoqlarnikidan farq qiladigan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining tarkibiga yer kiradi. yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etishi bizga ma'lum. yerning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xo'jaliklarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish zarur. yerning holatiga qarab o'g'it turlari, o'g'itning miqdori, texnikalarning turi va boshqalar tanlanadi. Agarda yerning meliorativ holatlarini qisobga olmasdan ekin turi, ma'danli o'g'itlar, unga ishlov beradigan texnikalar tanlansa, ishlab chiqarishning natijasi past bo'lishi turgan gap. Ba'zi hollarda yerga bunday munosabatda bo'lish uning ishlab chiqarish oborotidan chiqib ketishiga ham olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi tabiat qonunlariga boshqa tarmoqlarnikiga nisbatan ko'proq bog'liq. Buning natijasida turli mintaqalarda turlicha texnika va boshqa resurslardan foydalanish zarurati kelib chiqadi. Shimoliy zonalarda ekin turlari janubiy zonalardagidan farq qiladi. Shimoliy zonalarda issiq kunlarning nisbatan kam bo'lishi, eng avvalo, qisqa muddatlarda pishib yetiladigan ekin turlarini joylashtirishni talab qiladi. Janubiy hududlarda esa ekin turlarini tanlash imkoniyatlari kattaroq. Bunday holatlar esa moddiy-texnika resurslarining turli mintaqalarda turlicha bo'lishini talab qiladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarishning mavsumiyligi bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish davrining mos kelmasligi oqibatida ayrim texnika vositalari yilda bir necha kun yoki oy ishlatiladi, xolos. Masalan, don o'rish kombaynlari asosan o'rim – yig'im davrida 2 oy ishlatiladi. yer qazish ishlarida ishlatiladigan ekskavatorlar ham bunga misol bo'la oladi. Qishloq xo'jalik korxonalari qimmatbaho texnikani (kombaynlarni) yil davomida saqlashga majbur. Bu esa katta miqdorda qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Natijada, asosiy fondlardan, texnikalardan foydalanish samaradorligi pasayadi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslarining katta qismini tirik organizmlar (chorva mollari, ko'p yillik mevali bog'lar, uzumzorlar va boshqalar) tashkil etadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida biologik qonuniyatlarni ham hisobga olishni talab etadi. Aks holda natija past bo'lishi

mumkin. Bu xususiyatni hisobga olmaslik xo'jaliklarda mavjud texnikada, fondlardan foydalanish samaradorligi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, ishlab chiqarish keng maydonlarda olib borilishi xo'jaliklarda yaxshi rivojlangan transport tizimi, yo'l va aloqa kommunikatsiyalari bo'lishini talab qiladi. Texnikalarni bir maydondan ikkinchisiga olib borish, ularni ta'mirlashni tashkil etish jarayonida qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslarini tashkil etishning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Bu xususiyat katta qo'shimcha mablag'larni talab qiladi.

Oltinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi ko'p jihatdan sanoaning rivojlanganligiga bog'liq. Shu bilan birga moddiy-texnika resurslarining (em-xashak, zotli chorva mollari, urug'liklar kabilar) bir qismi qishloq xo'jaligining o'zida ishlab chiqariladi. Bu esa sarflanayotgan mablag'larning sotib olinayotgan va o'zida ishlab chiqarilayotgan moddiy-texnika resurslariga mos ravishda taqsimlanishini talab qiladi. Aks xolda ishlab chiqarishning natijaviy ko'rsatgichlari pasayishi mumkin.

Hozirda mamlakatimiz qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalashganlik darajasini oshirish, asta-sekinlik bilan uni sanoat asosiga o'tkazish borasida ishlar olib borilayapti. Bu qishloq xo'jaligi taraqqiyotining ob'yektiv yo'nalishlaridan biridir.

Asosiy vositalar vaqti-vaqti bilan O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan 2002 yil 29 oktyabrda tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 4 dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan «1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida nizom»ga ko'ra qayta baholanib turiladi. Bunday qayta baholash har yili bir marta 1 yanvar holatiga o'tkazildi.

Asosiy vositalar ishlab chiqarishning muhim omili sifatida qaralib, ular vositasida bevosita mehnat predmetlari va mehnat kuchlari birikuvida mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlar bajariladi va xizmatlar ko'rsatiladi.

Payariq tumani fermer xo'jaliklarida asosiy fondlar qiymatining o'zgarishini 2.3.1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2.3.1-jadval

Payariq tumani fermer xo'jaliklarida asosiy vositalar qiymatining o'zgarishi*

T/r	Ko'rsatkichlar	2011 yil		2013 yil		2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
		Qiymati, mln.so'm	Salmog'i, %	Qiymati, mln.so'm	Salmog'i, %	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Bino	3571,5	36,38	3601,9	323	30,4	100,8
2.	Inshoat	624,8	6,36	723,2	6,43	98,4	115,7
3.	Uzatish moslamalari	169,8	1,73	189,4	1,68	19,6	111,6
4.	Mashina va uskunalari	2624,6	26,74	3722,1	33,1	1097,5	141,8
5.	Mebel va ofis jihozlari	26,7	0,27	32,2	0,29	5,5	120,3
6.	Kompyuter va hisoblash texnikasi	5,4	06	9,7	09	4,3	179,8
7.	Transport vositalari	913,3	9,3	1307,2	11,63	393,9	143,1
8.	Mahsuldor hayvonlar	18,2	0,19	21,5	0,19	3,3	118,4
9.	Ko'p yillik o'simliklar	1604,8	16,35	1604,8	14,27	0	100
10.	Boshqa asosiy vositalar	257,5	2,62	32,2	0,29	-225,3	12,5
	Jami:	9816,5	100	11244,2	100	1427,7	114,5

***Manba:** Payariq tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

2.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Payariq tumani fermer xo'jaliklari 2013 yilda 11244,2 mln. so'mlik asosiy fondlarga ega bo'lib, 2011 yilga nisbatan 1427,7 mln. so'mga yoki 14,5%ga oshgan. Fermer xo'jaliklaridagi bu o'sishga mashina va uskunalardagi 41,8% yoki 1097,5 mln. so'm hamda transport vositalaridagi 43,1% yoki 393,9 mln. so'mlik o'sish ta'sir etgan. Bundan

ko'rinib turibdiki, tuman fermer xo'jaliklarida asosiy fondlar qiymati yildan-yilga oshib bormoqda.

Demak, ushbu raqamlardan ham ko'rinib turibdiki, tuman fermer xo'jaliklarida asosiy vositalar qiymati yildan-yilga oshib bormoqda.

3. FERMER XO'JALIKLARIDA MEHNAT HAQI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Mehnat haqining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi roli va ahamiyati hamda mehnatga haq to'lashning shakllari, mehnat haqi fondi va undan samarali foydalanish.

Har qanday ishlab chiqarish insoniyatni ma'lum bir ehtiyojini qondirishga qaratiladi. Har qanday ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun mehnat predmeti va mehnat kurollari bilan birgalikda albatta inson mehnatini birlashuvi zarur bo'ladi.

Mehnat bu-inson tomonidan ma'lum bir maqsadda amalga oshirilayotgan harakatdir. Mehnat haqi esa insonni bajargan ishiga yoki sarflagan vaqtiga qarab to'lanadigan haqdir.

Inson o'z mehnati bilan ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi. Mehnat bir tomondan ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishning zaruriy sharti bo'lsa, ikkinchi tomondan inson uchun daromad olishning asosiy manbasi hisoblanadi.

Inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ham mehnat qiladi. Natijada ma'lum bir mahsulot(ish, xizmat)lar yaratiladi. Ushbu yaratilgan mahsulot(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish xarajatlari mehnat predmetlari sarfi, mehnat qurollarini eyilishi va ishchi kuchiga to'langan xaqdan tashkil topadi. Har qanday mahsulot(ish, xizmat)larni tannarxini bir qismini mehnat haqi xarajatlari tashkil qiladi. Demak inson mehnatiga to'lanadigan xaqni to'g'ri belgilanishi ya'ni uni barcha zaruriy ehtiyojlarini qondiradigan darajada bo'lishi, insonni yanada samarali mehnat qilishga undaydi. Bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga, uni tannarxiga va natijada ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mualliflar O.Bobojonov va K.Jumaniyozovlar ta'kidlaganidek «Ish kuchi ishlab chiqarish jarayonida markaziy o'rinni egallaydi va ishlab chiqarish zahiralarini tarkiblanishidan biri hisoblanadi»⁴.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi Respublikamizda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Kodeksining 153 –

⁴O.Bobojonov va K.Jumaniyozov. Boshqaruv xisobi. – T.: Moliya-iqtisod, 2005y. – B.124

moddasiga asosan «Mehnat haqining miqdori ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Mehnat haqi qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas va uning eng ko'p miqdori biron bir tarzda cheklanmaydi»⁵.

Mehnat haqining turi, shakli va tizimlari, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar ish beruvchi bilan ishlovchi o'rtasida tuzilgan shartnomalarda, shuningdek ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib qabul qilinadigan boshqa tegishli hujjatlarda belgilanadi. Mehnatga haq asosan pul shaklida to'lanadi, ayrim hollarda, O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan hollarda natura shaklida to'lanishi mumkin.

Har bir mehnat turi uning shaklidan qat'iy nazar uni tashkil etishni talab etadi. Ma'lumki mehnatni tashkil etish eng avvalo xo'jalik sub'ekti yoki tashkilot miqiyosida chegaralangan bo'ladi. Xo'jalik sub'ektida mehnatni tashkil etish, mehnat resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan chora – tadbirlar yig'indisini o'zida mujassam etadi. U o'z ichiga qo'yidagi vazifalarni qamrab oladi: alohida va hamkorlik, tartibga solish va rag'batlantirish, ish joylarini tashkil etish va ularga xizmat ko'rsatish, mehnat uchun zarur bo'lgan shart – sharoitlar yaratib berish va hokazolar. Mehnatni tashkil etishning ob'ekti bo'lib, mehnat jamoasidagi xodimlarning mehnati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lishi, natijada yangicha xo'jalik yuritish tizimlari paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday sharoitda fermer xo'jaliklarida mehnat resurslari va ularning ishlatilishini belgilab beruvchi buxgalteriya hisobi va tahlilining uslubiyati yangi sharoitga moslashishi talab etiladi. Fermer xo'jaliklarida endilikda nafaqat o'zining ichki omillarini, balki tashqi omillarni ham inobatga olishi zarurdir. Fermer xo'jaliklarini boshqarish nuqtai nazaridan esa korxona xodimlari soni, tarkibi, mehnat unumdorligi, ish haqi va ish haqi fondi, ish haqiga nisbatan ajratmalar, ularning ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga mos

⁵ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi . – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004. – B. 81.

kelishi yoki kelmasligi, mehnat va ish haqi bo'yicha unumsiz xarajatlar, asosiy ishlab chiqarish xodimlari va ma'muriy boshqaruv xodimlari bo'yicha ish haqi xarajatlari kabi ishonchli ma'lumotlar zarur bo'ladi. Ushbu ma'lumotlarni ishonchliligi xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob – kitoblar hisobi va tahlili asosida ta'minlanadi.

Ishlovchilarga to'lanadigan mehnat haqini iqtisodiy asoslangan holda oshirib borish asosida, xodimlar moddiy manfaatdorligini ta'minlash hozirgi kundagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Moddiy manfaatdorlik to'g'ri yo'lga qo'yilganda, ya'ni ishlovchilarning oladigan mehnat haqlaridan qoniqish hissi paydo bo'lgandagina, xodimlarning mehnatga bo'lgan munosabati o'zgarib, mehnat intizomi mustahkamlanib, mehnat unumdorligi oshib, umuman korxonada ishlab chiqarish samadorligi oshadi. Bunday ma'suliyatli vazifani hal etish boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirishga, boshqaruv tizimini ishonchli va aniq axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi xodimlar bilan mehnatga haq to'lash hisobi xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etishni va tahlilini to'g'ri amalga oshirishni talab etadi.

Samarqand viloyati Payariq tumanidagi “Karim bobo” fermer xo'jaligida 2009 – 2013 yillarda xodimlarning o'rtacha mehnat haqi va fermer xo'jaligining daromadlari dinamikasi tahlili quydagicha bo'lgan (3.1.1-jadval).

3.1.1-jadval

“Karim bobo” fermer xo’jaligida 2009-2013 yillarda xodimlarning mehnat haqi va korxona sof foydasining o’zaro bog’liqligi tahlili*

Yillar	O’rtacha ishlovchilar soni, kishi	Yillik mehnat haqi fondi, ming so’m	Oylik o’rtacha mehnat haqi, ming so’m	Korxonaning yalpi daromadi, mln so’m	Korxonaning sof foydasi, mln so’m
2009	9	7830,0	72,5	31,5	1,8
2010	9	9223,2	85,4	37,2	2,1
2001	11	13398,0	101,5	46,3	3,7
2012	12	19368,0	134,5	57,3	2,2
2013	14	27132,0	161,5	69,1	2,7
2013 yil 2009 yilga nibatan, %	155,5	3,5 marta oshgan	2,2 marta oshgan	2,2 marta oshgan	1,5 marta oshgan

***Manba:** “Karim bobo” fermer xo’jaligini yillik buxgalteriya hisobti ma’lumotlari

3.1.1-jadvaldan ko’rinib turibdiki, Payariq tumani “Karim bobo” fermer xo’jaligida 2009 – 2013 yillarda ishlovchilarning o’rtacha mehnat haqi 2,2 martaga yoki 89,0 ming so’mga oshgan bo’lsa, fermer xo’jaligining sof foydasi 1,5 martaga yoki 0,9 million so’mga oshgan. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkin bo’ladiki, ishlovchilarning moddiy manfaatdorligi oshgan sari, fermer xo’jaligining oladigan sof foydasi ham oshib borgan.

Ana shulardan kelib chiqqan holda mehnat va unga haq to’lashni hisobga olishning quyidagi vazifalarini belgilashimiz mumkin:

- 1) Ish vaqtining to’g’ri sarflanishi ustidan nazorat olib borish;
- 2) Sarflangan mehnat yoki ishlab chiqarilgan mahsulotni tegishli hujjatlarda o’z vaqtida va to’g’ri aks ettirish;
- 3) Hisoblangan ish haqini kalkulyatsiya ob’ektlari o’rtasida to’g’ri taqsimlash;
- 4) Mehnat va unga haq to’lashning ilg’or usullarini amalda qo’llash;
- 5) Mehnatga haq to’lash fondining to’g’ri sarflanishi ustidan nazorat olib borish;

6) Mehnat va unga haq to'lash bo'yicha ma'lumotlarni moliyaviy hisobot va xo'jalik rahbariyati uchun o'z vaqtida umumlashtirish va taqdim etish.

Fermer xo'jaliklarida xodimlar mehnatiga tarif tizimi asosida sarflangan mehnat miqdori va sifatiga muvofiq haq to'lanadi. Tarif tizimi - tarif-malaka ma'lumotnomasi, tarif setkasi va tarif stavkasi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Tarif setkasi – bu razryadlar va ularga tegishli bo'lgan tarif koeffitsientlari ko'rsatiladigan hujjatdir.

Tarif stavkasi - xodimning razryadiga muvofiq unga ma'lum vaqt birligi(soat,kun) uchun to'lanadigan haq miqdorini aniqlaydi. Odatda tarif stavkasi birinchi razryad uchun belgilanib, qolgan razryadlar uchun esa birinchi razryad tarif stavkasini qolgan razryadlar tarif koeffitsientiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Fermer xo'jaliklarida ish haqining asosan *ishbay* va *vaqtbay* shakllari qo'llaniladi. Ish haqining *ishbay* shaklida mehnatga haq *ishbay* narx asosida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va sifatiga muvofiq to'lanadi. Narx- bu bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun to'lanadigan ish haqi summasidir. Amalda *ishbay* ish haqi shaklining oddiy, mukofot va akkord tizimlari qo'llaniladi.

Oddiy *ishbay* shaklida ishlab chiqarilgan mahsulot sonini *ishbay* narxiga ko'paytirish yo'li bilan ish haqi miqdori aniqlanadi.

Ishbay-mukofot shaklida xodim asosiy ish haqidan tashqari ma'lum ishlab chiqarish yutuqlariga erishganligi uchun mukofot oladi. Masalan, ishlab chiqarishda xom-ashyo, material va boshqa moddiy boyliklar tejab-tergab sarflanganligi, ishlab chiqarish rejasini oshirib bajarilganligi va h.k. *Ishbay* ish haqi shaklining ushbu tizimi amalda keng qo'llaniladi.

Ishbay akkord shaklida ish haqi summasi ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulot yoki bajarilishi lozim bo'lgan ish uchun belgilanadi. Akkord shaklining afzalliklaridan biri shundaki, unda bajarilgan jami ishning hajmi yoki olingan mahsulot uchun haq to'lanadi. Bu esa mehnatni me'yorlashni va ish haqi bo'yicha hisob kitob ishlarini bir muncha engillashtiradi. *Ishbay* akkord tizimi asosan mavsumiy ishlarni hamda ayrim buyurtmalarni bajarishda qo'llaniladi.

Ish haqining vaqtbay shaklida mehnatga haq xodimning ishlagan vaqti va malakasiga qarab to'lanadi. Amalda vaqtbay ish haqining oddiy va mukofot shakllari qo'llaniladi.

Oddiy vaqtbay shaklida korxonalar xodimlar haqiqatan ishlagan vaqtiga qarab belgilangan maosh asosida haq olishadi. Vaqtbay ish haqi oluvchi xodimlar mehnatiga haq ularning ishlagan vaqti va tarif stavkalari asosida aniqlanadi.

Vaqtbay – mukofot shaklida asosiy ish haqidan tashqari mukofot ham to'lanadi.

Fermer xo'jaliklarida mehnat va unga haq to'lash bo'yicha masalalarni mustaqil ravishda o'zlari hal qiladilar. Fermer xo'jaligi rahbari tasdiqlangan mehnatga haq to'lash fondi doirasida mehnatga haq to'lashning ishbay, vaqtbay yoki akkord shakllarini belgilashi hamda xodimlarni mukofotlash uchun mukofotlash shartlari hamda ko'rsatkichlarini aniqlab olishi mumkin.

Amaldagi tarif-malaka ma'lumotnomasiga muvofiq fermer xo'jaliklari xodimlarga razryad belgilash, ishlab chiqarish me'yorlarini qarab chikish va yangilarini tasdiqlashi mumkin. Undan tashqari, fermer xo'jaliklari rahbari yuqori malakali xodimlarning oylik ish haqiga qo'shimcha belgilay oladi, shtatlar, maosh, ma'muriy boshqaruv xarajatlari smetasini tasdiqlaydi.

Fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash fondini rejalashtirish tartibini o'zgartirish bilan bir qatorda mehnatga haq to'lashning ilg'or shakllarini qo'llashga, mehnatga haq to'lashning rag'batlantirish rolini kuchaytirishga, erishilgan yuqori natijalardan moddiy manfaatdorlikni oshirishga alohida etibor berilishi lozim.

Ish haqi o'z tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi: asosiy va qo'shimcha.

Asosiy ish haqi deyilganda fermer xo'jaliklari xodimlarining ishlagan vaqti uchun to'lanadigan haq tushuniladi. Masalan vaqtbay va ishbay haqning barcha turlari, mehnat sharoitining o'zgarganligi uchun to'lanadigan qo'shimcha haq uchun to'lanadigan haq va boshqalar nazarda tutiladi.

Qo'shimcha ish haqi deb xodimlarning ishlamagan vaqti uchun amaldagi qonun-qoidalariga muvofiq to'lanadigan haqga aytiladi. Masalan, mehnat ta'tili

uchun, yoshi 18 ga etmagan o'smirlarning ishlamagan soati uchun, davlat, jamoa ishlari bilan band bo'lingani uchun to'lanadigan haq va boshqalar.

Fermer xo'jaliklari xodimlarining asosiy va qo'shimcha mehnat haqlari hamda ro'yxatda bo'lmagan xodimlar mehnat haqi summasi mehnatga haq to'lash fondini tashkil qiladi. Unga quyidagilar kiradi:

- fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq hisoblangan mehnat haqi;
- mehnat haqi ko'rinishida berilgan mahsulot qiymati;
- tarif stavkalari va okladlariga qo'shimchalar;
- mukofotlar;
- fermer xo'jaliklari shtatida bo'lmagan xodimlar mehnatiga haq;
- mehnat ta'tiliga to'lanadigan haq va boshqalar.

Fermer xo'jaliklari pul to'lovlari va rag'batlantirishlariga quyidagilar kiradi:

1. Yillik ish yakunlari bo'yicha rag'batlantirish;
2. Ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarganligi uchun rag'batlantirish;
3. Fermer xo'jaliklaridan o'qishga yuborilgan talabalarga stipendiya;
4. Davolanish uchun beriladigan yo'llanmalar qiymati va boshqalar.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirib borishda, mehnat haqi tizimini doimo shunday takomillashtirib borish kerakki, toki u mehnatning miqdori va sifatiga qarab haq to'lash tamoyiliga mos tushsin, uning sharoiti va natijalarini hisobga olsin, xodimlar malakasini, mehnat unumdorligini oshirishni, mahsulot sifatini yaxshilashni, barcha resurslardan oqilona foydalanishni va ularning tejalganligini rag'batlantirsin. Ushbu vazifalarni hal etish bevosita mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlil qilish asosida olinadigan va korxona boshqaruvchilariga taqdim etiladigan axborotlar sifatiga bog'liq. SHuning uchun tahlilning asosiy vazifasi mahnatga haq to'lash fondini mutloq miqdorini tobora ko'paytirish va nisbiy ulushini kamaytirib borish imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi. Zero, mehnat haqi tannarxda tutgan salmog'i jihatdan yuqori bo'lib, uni qisqartirish tannarxining kamayishiga, bu esa o'z navbatida, foyda va rentabellik darajasining oshirilishiga

olib keladi.

Mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlili uchun ma'lumotlar statistik hisobotning 1-t sonli «Mehnat to'g'risidagi hisobot» nomli shaklidan olinadi. Bundan tashqari buxgalteriya hisobining dastlabki va hisob ma'lumotlaridan foydalaniladi. Tahlilning dastlabki bosqichi asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining va ular toifalarining mehnatga haq to'lash fondini o'tgan yildagi mehnatga haq to'lash fondi bilan taqqoslab mutlaq farqni aniqlashdan boshlanadi.

Mehnatga haq to'lashga ta'sir qiluvchi omillarni mutlaq farq usuli orqali aniqlash mumkin. Bunda mehnatga haq to'lash vositasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

- 1) Ishlovchi xodimlar soni;
- 2) Xodimlarning o'rtacha yillik mehnat haqi.

Birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun xodimlar sonida bo'lgan farqni xodimlarning o'tgan yildagi o'rtacha yillik mehnat haqi miqdoriga ko'paytiriladi.

Ikkinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun xodimlarning o'rtacha yillik mehnat haqida bo'lgan farqni xodimlarning o'tgan yildagi ro'yxatidagi o'rtacha soniga ko'paytiriladi.

Demak, mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlil qilish uchun boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan juda ko'p an'anaviy usullardan foydalanish mumkin, ularni keyingi boblarda ko'rib chiqamiz.

3.2. Mehnat va ish haqini boshlang'ich xujjatlarda rasmiylashtirish va umumlashtirish

Mehnat va uning hisobini tashkil etish jarayonida, kadrlar bo'lim va buxgalteriyada mehnat haqini hisobini aniq va to'g'ri hisobga olib borish maqsadida birlamchi hujjatlarda qayd qilinib boriladi. Shu hujjatlar asosida xodimlar va xodimlar hisobini, ularning mehnati va ularga haq to'lanishini olib boradi, Shaxsiy tarkibni hisobga olish bo'yicha ya'ni xodimlar tarkibi hisobini yuritish uchun dastlabki hujjatlarni qo'yidagilar tashkil etadi:

Ishga qabul qilish to'g'risidagi buyruq (T-1 son shakl) – ishga yangi qabul qilingallarni hisobga olish uchun qo'llaniladi. Kadrlar bo'limi xodimi yoki qabul uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan fermer xo'jaliklarining barcha xodimlariga bir nusxada to'ldiriladi. Xodim ishga olinayotgan xo'jalik sub'ekti bo'linmasi rahbari qabul imkoniyati haqida xulosa beradi: buyruqning orqa tomonida yollanayotgan ishga kim sifatida, qanday maosh bilan qabul qilinayotganligi ko'rsatiladi.

Xodimning ish sharoitlariga roziligi, muzokaralar, tibbiy ko'rik natijalari, texnika xavfsizligi, yong'indan saqlash bo'yicha instruktajdan o'tganligi haqida qaydlar hamda boshqa belgilar shaklning orqa tomoniga qo'yiladi. Maosh belgilanadigan, xodimni ishga qabul qilish to'g'risidagi buyruqqa xo'jalik sub'ekting tegishli xizmati tomonidan viza qo'yiladi. Payariq tumani fermer xo'jaliklari rahbari imzolagan farmoyish xodimga e'lon qilinadi.

Ishga qabul qilish to'g'risidagi farmoyishga asosan shaxsiy varaqa to'ldiriladi, mehnat daftarchasida ishga olinganligi haqida qayd qilinadi, Payariq tumani fermer xo'jaliklari buxgalteriyasi esa shaxsiy hisobraqam ochadi.

TTTshaxsiy varaqa (T-2 son shakl) — fermer xo'jaliklari barcha toifadagi xodimlariga, shu jumladan oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega mutaxassislar va yosh xodimlarga bir nusxada to'ldiriladi va yuritiladi.

Kadrlar bilan ish yuritadigan xodim tomonidan xodimlar so'rovini o'tkazish va quyidagi hujjatlarini ko'rib chiqish asosida shaxsiy varaqa to'ldiriladi: pasport, harbiy билет, mehnat daftarchasi, diplom. Xodim haqidagi ma'lumotlardagi

keyinchalik yuz beradigan o'zgarishlar muntazam shaxsiy varaqada aks ettirilishi lozim.

Boshqa ishga o'tkazish haqidagi buyruk (farmoyish) — xodimni xo'jalik sub'ekting bir bo'linmasidan boshqasiga o'tkazishni rasmiylashtirish chog'ida qo'llaniladi. Ikki nusxada to'ldiriladi. Bir nusxasi kadrlar bo'limida saqlanadi, boshqasi xo'jalik sub'ekti buxgalteriyasiga yuboriladi. Ilgarigi va yangi ish joyidagi bo'lim boshliqlari farmoyishiga viza ko'yadi va fermer xo'jaligi rahbari imzolaydi. Boshqa ishga o'tkazish haqidagi buyruqqa asosan kadrlar bo'limi shaxsiy varaqada, mehnat daftarchasida va boshqa hujjatlarda yozuvlarni qayd etadi. Shaklning orqa tomonida ilgarigi ish joyida xodim hisobida bo'lgan, topshirilmagan mulkiy – moddiy kimmatliklar to'g'risidagi yozuv kayd etiladi.

Ta'til berilish xakidagi yozuv (T-6 son shakl) — fermer xo'jaliklarida xo'jalik sub'ekti ustaviga, amaldagi qonun hujjatlariga va nizomlarga, jamoa shartnomalariga va ta'tillar jadvaliga muvofik beriladigan xar yilgi yoki boshqa turdagi ta'tillarni rasmiylashtirish chog'ida qo'llaniladi. Ta'til berish haqidagi farmoyish bir nusxada to'ldiriladi va bo'linma boshlig'i hamda xo'jalik sub'ekti rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Ta'til berish haqidagi farmoyishga asosan kadrlar bo'limi xodimning shaxsiy varaqasida yozuvni kayd etadi, xo'jalik sub'ekti buxgalteriyasi esa ta'til uchun berilishi lozim bo'lgan ish haqini hisob-kitob qiladi. Hak to'lanmaydigan ta'til berish chog'ida ta'til kunlari soni ko'rsatiladigan qatorda «haq to'lanmaydi» deb yozib qo'yiladi.

Mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruk : (farmoyish) (T-8 son shakl) — xodimni ishdan bo'shatish chog'ida qo'llaniladi, har bir xodimga kadrlar bo'limi xodimni tomonidan bir nusxada to'ldiriladi, Fermer xo'jaliklari rahbari imzolaydilar. «Topshirilmagan mulkiy-moddiy va boshqa qimmatliklar haqida ma'lumotnoma» bo'limida xodim hisobida bo'lgan, topshirilmagan qimmatliklar haqidagi yozuv kayd etiladi. Mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruqqa asosan buxgalteriya xo'jalik sub'ekti xodimi bilan hisob-kitobni amalga oshiradi. Uz xohishiga ko'ra ishdan bo'shatish chog'ida xodim T-8 son shaklning old tomonida arizani rasmiylashtiradi.

Fermer xo'jaliklarida xodimlarning ish vaqtidan foydalanishni hisobga olish bo'yicha birlamchi hujjatlarni quyidagilar tashkil etadi:

Ish vaqtidan foydalanish va ish haqi hisob-kitobini hisobga olish tabeli (T-12 son shakl) — fermer xo'jaliklarida ishlaydigan barcha shaxslarning ish vaqtidan foydalanishini hisobga olish chog'ida, shuningdek ularning belgilangan ish vaqti tartibiga rioya etishi ustidan nazorat yuritiladi, ya'ni barcha ishga kelingan, shuningdek kechikkan va hokazolar haqida qaydlar yoxud bo'yintovlashlar (ishga kelmaslik, kechikishlar va hokazolar)ni ro'yxatdan o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. T-2 son shakldagi tabelning titul varag'ida ishlagan va iilanmagan vaqtning shartli belgilari berilgan. Kunlar va soatlar soni bitta o'nlik belgi bilan ko'rsatiladi.

Ish vaqtini hisobga olish tabeli (T-13 son shakl) — fermer xo'jaliklarida ishlaydigan barcha shaxslarning ish vaqtidan foydalanishini hisobga olish chog'ida, shuningdek ularning belgilangan ish vaqti tartibiga rioya etishi ustidan nazorat qilish, ular bilan ish haqiga oid hisob – hilish hamda ishlangan vaqt haqida ma'lumotlar olish uchun qo'llanadi. Tabel uni yuritish topshirilgan shaxs tomonidan bir nusxada tuziladi va xo'jalik sub'ekti buxgalteriyasiga bir oyda ikki marta oyning birinchi yarmi uchun to'lanadigan summani (bo'nak) to'g'rilash xamda oylik ish haqini hisob qilish uchun yuboriladi, Agar xo'jalik sub'ektida mehnatga haq to'lash oyda bir marta amalga oshirilsa, tabel buxgalteriyaga oyda bir marta yakuniy hisob – kitob uchun topshiriladi. Ishga kelganlik va ish vaqtidan foydalanganlik hisobi yalpi ro'yxatdan o'tkazish usulida tabelda yuritiladi, ya'ni barcha ishga kelingan, shuningdek kechikkan va hokazolar haqida qaydlar yoxud bo'yin tovlashlar (ishga kelmaslik, kechikishlar va hokazolar)ni ro'yxatdan o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. T-13 son shakldagi tabelning titul varag'ida ishlangan va ishlanmagan vaqtning v shartli belgilari berilgan. Kunlar va soatlar soni bitta o'nlik belgi bilan ko'rsatiladi. T-13 son shakl ish haqi hisob – kitobini hisobga olmagan holda ish vaqtidan foydalanishni hisobga olish uchun qo'llaniladi. Hisobda T-13 son shaklini qo'llash chog'ida ish haqi hisob-kitob to'lov qaydnomasining (T-49 son shakldagi) shaxsiy schyotida hisoblab chiqariladi.

Payariq tumani fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lashning vaqtbay va ishbay shakllari qo'llaniladi. Payariq tumani fermer xo'jaliklarida xodimlar mehnatning anchagina qismiga haq vaqtbay shaklida qo'llanadi.

Tabel— uni yuritish topshirilgan shaxs tomonidan bir nusxada tuziladi va xo'jalik sub'ekti buxgalteriyasiga bir oyda ikki marta oyning birinchi yarim uchun to'lanadigan summani (bo'nak) to'lash hamda oylik ish haqini hisob qilish uchun yuboriladi. Agar fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash oyda bir marta amalga oshirilsa, tabel ham buxgalteriyaga yakuniy hisob-kitob uchun oyda bir marta topshiriladi. Bunda asosiy hujjat bo'lib ish vaqtini hisobga olish tabeli hisoblanadi. Xodimga ish haqi hisoblash uchun uning haqiqiy ishlagan vaqtining miqdori va tarif stavkasini belgilash etarli. Tarif stavkasini ishlagan ish soatiga ko'paytirib vaqtbay xodimning ish haqi summasini topish mumkin.

Ishlagan mahsulot va bajarilgan ishlar hisobi bo'yicha dastlabki hujjatlar miqdorini qisqartirish maqsadida yiriklashtirilgan jami norma va baholarni ko'llash shuningdek bir yo'la tuziladigan bir kunlik hujjat o'rniga ko'p kunlik (yig'ma hujjat) xaftada ishbay ishlarining bajarilishi (T-28 son shakl)ga o'xshagan hujjatlarni qo'llash tavsiya qilinadi.

Fermer xo'jaliklarining xodimlar va xizmatchilar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga olish bo'yicha qo'yidagi birlamchi hujjatlarni ko'rsatish mumkin:

Hisob-kitob to'lov kaydnomasi (T-49 son shakl) — Payariq tumani fermer xo'jaliklarida hisob ma'lumotlarini qo'lda qayta ishlash chog'ida ish haqi va pensiya bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitob va hisob operatsiyalarini o'tkazish uchun ko'llaniladi.

Ish haqini hisoblab yozish ishlangan va bajarilgan ishlar, amalda ishlangan vaqt, hisobga olish bo'yicha birlamchi hisob mehnatning anchagina qismiga haq vaqtbay shaklida qo'llanadi. Bunda asosiy hujjat bo'lib ish vaqtini hisobga olish tabeli hisoblanadi. Xodimga ish haqi hisoblash uchun uning haqiqiy ishlagan vaqtining miqdori va tarif stavkasini belgilash etarli. Tarif stavkasini ishlagan ish soatiga ko'paytirib vaqtbay xodimning ish haqi summasini topish mumkin.

Fermer xo'jaliklarida u yoki bu dastlabki hujjatlar shaklini ko'llash ishlab chiqarishni xarakteri, mehnatini tashkil qilish va unga haq to'lash tizimiga, shuningdek maxsulot sifatini nazorat qilish usuliga bog'liq, qonuniy hujjatlarga binoan fermer xo'jaliklarida ko'yidagi dastlabki hujjatlar ham qo'llaniladi: ishbay ish naryadi, tayyorlangan mahsulotni hisobga olish qaydnomasi, bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasi, vaqtbay ishlovchilariga berilgan normalashtirilgan topshiriq va boshqalar.

Fermer xo'jaliklarining xodimlari va xizmatchilari bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga olish bo'yicha qo'yidagi birlamchi hujjatlarni ko'rsatish mumkin:

To'lov qaydnomasi (T-53 son shakl) — mehnat haqini to'lashni hisobga olish uchun qo'llaniladi va hisob-kitob qaydnomasi asosida to'ldiriladi.

Shaklning titul varag'ida to'langan va deponentga o'tkazilgan ish haqining umumiy summasi ko'rsatiladi. Zarur hollarda «Izoh» ustunida taqdim etilgan hujjat raqami ko'rsatiladi. To'lov qaydnomasini to'ldirishda so'nggi yozuvdan keyin qaydnoma bo'yicha umumiy summa uchun yakuniy satr kiritilishi lozim. Yakuniy satrlar shuningdek har bir sahifaning so'ngida kiritilishi mumkin.

SHaxsiy hisobvaraqa (T-54 son shakl) — o'tgan davrlar uchun ish haqi va pensiya haqidagi ma'lumotlarni aks ettirishda foydalaniladi.

Fermer xo'jaliklari buxgalteri tomonidan to'ldiriladi. Unda ishlangan va badarilgan ishlar, ishlab berilgan vaqtni hisobga olish bo'yicha boshlang'ich hujjatlar hamda turli to'lovlarga oid xujjatlar asosida barcha turdagi hisoblab yozishlar va ish haqidan ushlanmalar haqidagi yozuv qayd etiladi.

Bo'nak hisob-kitobisiz ish haqi berishda T-54 son shaklda hisoblab yozishlar va ushlanmalar haqidagi yozuv ikki satrda qayd etiladi. Shaxsiy schyotdagi ma'lumotlarga asosan T-49 son shakldagi hisob-kitob to'lov qaydnomasi tuziladi.

Quyidagi dastlabki hujjatlar ish haqi hisoblash qaydnomasi va hisoblash varaqalarini tuzish uchun asos bo'lib hisoblanadi:

- ish vaqtidan foydalanishni hisobga olish tabeli asosida foydalanilgan vaqt yotadigan vaqtbay ish haqi va boshqa to'lovlarni hisoblash uchun foydalaniladi

(bekor turishlar, tungi va ish vaqtidan ortiq ishlagani, vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotgani va shu kabilar uchun to'lanadigan haq);

-barcha turdagi qo'shimcha haq va vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotgani bo'yicha nafaqalar hisoblash buxgalteriya hisobi;

-o'tgan oy bo'yicha hisoblash kaydnomalari soliq ushlanmalar summasini hisoblash uchun;

-ijro varaqalari bo'yicha ushlab qolish uchun sud organlarining qarorlari;

- oyning birinchi yarmi uchun bo'nak berish bo'yicha to'lov qaydnomalari;

-rejasiz bo'naklar berish bo'yicha kassa-chiqim orderlari va h.k.

Fermer xo'jaliklarida mehnat va unga haq to'lashning dastlabki hisobi bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar asosida xodimlarga mehnat haqi amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida qabul qilingan qoidalarga asosan hisoblanadi. Hisoblangan mehnat haqi fermer xo'jaliklari buxgalteriyasida yuritiladigan "Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar daftari"da aks ettirilib boriladi. "Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar daftari"ga asosan korxona buxgalteri "To'lov qaydnomasi" tuzadi. "To'lov qaydnomasi"ga fermer xo'jaligi rahbari va buxgalteri imzo chekkandan so'ng, qaydnoma asosida xodimlarga fermer xo'jaliklari kassasidan mehnat haqi beriladi.

3.3. Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob – kitoblarning analitik va sintetik hisobini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga binoan xodim va xizmatchilarga ish haqi bir oyda kamida bir marta beriladi. Ayrim hollarda xodimlarning alohida kategoriyalari uchun O'zbekiston Xukumati tomonidan ish haqi to'lash bo'yicha boshqa muddatlar belgilanishi mumkin.

Xodimlarga tegishli ish haqi, mukofat, nafaqalar hisoblashni amalga oshirish bilan bir vaqtda bu summalar fermer xo'jaliklari buxgalteriyasida tegishli registrlarda hisobga olib boriladi.

Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga binoan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga xaq to'lash xarajatlari ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga o'tkaziladi.

Payariq tumani fermer xo'jaliklarida xodim va xizmatchilar bilan hisoblashishni rasmiylashtirish uchun foydalaniladigan hujjat bo'lib hisoblash qaydnomai hisoblanadi. Hisoblash qaydnomasi analitik hisob registri bo'lib hisoblanadi, chunki u har bir tabel nomeri, xodimlar kategoriyalari, to'lov va ushlanmalar turlari bo'yicha tuziladi. To'lov qaydnomasi qo'yidagi ko'rsatkichlardan iborat:

-to'lov turlari bo'yicha hisoblanadi — 6710 schyotning kredit oboroti bo'yicha;

-to'lov va zachet turlari bo'yicha ushlandi va zachet qilindi — 6710 schyotning debet oboroti;

-ko'liga tegadigani yoki xo'jalik sub'ektining oy oxiriga qarzi — 6710 schyotning kredit saldosi.

Hisoblash qaydnomasining oxirgi ko'rsatkichi pirovard hisoblashish bo'yicha to'lov qaydnomasini tuzish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Payariq tumani fermer xo'jaliklarida xodim va xizmatchilar bilan hisoblashishni rasmiylashtirishda bir qancha variantlar qo'llaniladi:

-hisoblashish — to'lov qaydnomalarini tuzish yo'li bilan. Bunda ikki registr birlashtirilgan: hisoblash va to'lov qaydnomasi, ya'ni bir vaqtning o'zida to'lashga tegishli summa hisoblanadi va u beriladi (to'lanadi);

-hisoblash qaydnomasini tuzish yo'li bilan to'lash esa to'lov qaydnomasi bilan amalga oshiriladi;

-har ish oyi uchun (hisoblandi, ushlandi, qo'liga tegadigani) «Ish haqi hisoblash» varaqalarini mashinalarda tuzish yo'li bilan. Bunga asosan ish haqi berish uchun to'lov qaydnomasi tuziladi.

Fermer xo'jaliklarida barcha bu mehnat xarajatlari bevosita quyidagi schyotlarning debeti bo'yicha aks ettiriladi: 2010 - «Asosiy ishlab chiqarish»; 2310 - «Yordamchi ishlab chiqarish», 2510 - «Umumishlab chiqarish xarajatlari», 3110 -

«Kelgusi davr xarajatlari» schyotlari. Bunda 6710 - «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyoti kreditlanadi.

Xodimlarning ta'til vaqti uchun hisoblangan ish haqi summasiga 8910 - «Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari» (anar xo'jalik sub'ektiga bunday rezerv mablag'larini tashkil etish xukukiy berilgan bo'lsa) schyoti debetlanib 6710 «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyoti kreditlanadi.

Ishga qobiliyatsizligi bo'yicha nafaqa va ijtimoiy sug'urta organlari mablag'lari hisobidan to'lanadigan boshqa to'lovlar 6520 - «Ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar» schyotining debeti va 6710 schyotning kreditiga yozilib 10-1 jurnal orderida aks ettiriladi. 21 -son BHMSda ish haqining barcha turlari, mukofotlar, nafaqalar, ishlayotgan pensionerlarga nafakalar to'lash va boshqa schyotlarning korrespondentsiyasi unga o'xshash to'lovlar bo'yicha xo'jalik sub'ektining xodimlardan joriy qarzlarini hisobga olish uchun 6710-«Mehnatta hak to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» hamda 6720-«Deponentga o'tkazilgan ish haqi» schyotlari nazarda tutilgan.

6710-«Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyoti krediti bo'yicha hisoblab yozilgan mehnat haqi to'lovlari, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va boshqa shunga o'xshash summalar, 6710-«Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyotining debeti bo'yicha esa hisoblab yozilgan ish haqi summasidan ushlanmalar aks ettiriladi (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval

6710-«Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyotining korrespondentsiyasi

Korespondentlanuvchi schyotlar			
Schyotlarning kredit		Schyotlarning debeti	
5010	Xodimlarga hisoblab yozilgan summalar (ish haqi, mukofotlar va hokazolar) kassadan to'landi.	2010, 2310, 2510, 2710	Asosiy, yordamchi ishlab chikarishlar, umumiy ishlab chikarish tseklari xodimlari, xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga hisoblab yozilgan ish haqi summalar.
6410	Mehnat haqidan daromad solig'i ushlandi.	1010-1090, 1110, 2910 - 2990	TMZ tayyorlash va xarid qilishga oid operatsiyalar bo'yicha hisoblab yozilgan mehnat haqi to'lovlari.
6510	Mehnat haqidan sug'urta badallari ushlandi.	9410-9430	Mahsulot realizatsiyasida band bo'lgan xodimlarga, ma'muriy-boshqaruv xodimlariga va boshqa operatsiyalarni bajaradigan xodimlarga hisoblab yozilgan ish haqi.
9010	Xodim ish haqidan u sotgan mahsulot, ishlar, xizmatlar qiymati ushlab qolindi.	3190	Kelgusi davrlar xarajatlariga kiritiladigan ishlar uchun hisoblab yozilgan ish haqi

6720-«Deponentga o'tkazilgan ish haqi» schyotida xodimlarning olmagan haqlariga oid qarzar aks ettiriladi. Deponentga oid hisob-kitoblar hisobi to'lanmagan ish haqi reestri ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladigan, deponentga o'tkazilgan ish haqi hisobga olinadigan daftarda yuritiladi.

Fermer xo'jaliklarida xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob – kitoblar yuqorida qayd etib o'tganimizdek 6710-«Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» hamda 6720-«Deponentga o'tkazilgan ish haqi» schyotlarida olib boriladi.

Fermer xo'jaliklarida hisoblangan mehnat haqi har oyda bir marta kassadan beriladi. 2011 yilning ikkinchi kvartalidan boshlab xodimlarga mehnat haqining, ularning yozma ravishda bergan arizalariga asosan 30-50 foizi plastik kortochkalariga o'tkazilib beriladi. Fermer xo'jaliklarida mehnat haqi bo'yicha avans to'lovlari berilmaydi. Mehnat haqi kassadan berilganda 6710-«Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyoti debetlanib, 5010 –

«Kassadagi pul mablag'lari» schyoti kreditlanadi. Mehnat haqi xodimlarning plastik kartochkasiga o'tkazib to'langanda 6710-«Mehnatta hak to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyoti debetlanib, 5110 – «Hisob-kitob schyoti» kreditlanadi. Agar ma'lum sabablar bilan xodim mehnat haqini vaqtida ololmay qolsa, mehnat haqi deponentga o'tkaziladi, bunda 6710-«Mehnatta hak to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyoti debetlanib, 6720-«Deponentga o'tkazilgan ish haqi» schyoti kreditlanadi.

Har yillik va ko'shimcha ta'tillari bo'yicha hisoblab yozilgan summalar faqatgina hisobot oyidagi kunlarga tegishli summada hisobot oyidagi ish haqi fondiga kiritiladi. Ta'tilning bir qismi keyingi oyga o'tgan taqdirda mazkur kunlar uchun xodimlarga to'langan ta'til summalari hisobot oyida to'langan bo'naklar sifatida ko'rsatiladi hamda 4290-«Xodimlarga to'langan boshqa bo'naklar» schyoti debeti va 5010-«Milliy valyutadagi pul mablag'lari» schyoti krediti bo'yicha aks ettiriladi. Keyingi oyda bu summa mehnatga hak to'lash fondi tarkibiga kiritiladi hamda 6710-schyot krediti bo'yicha 4290-schyoti bilan korrespondentsiyada aks ettiriladi.

4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schyotida fermer xo'jaliklari xodimlariga mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklarning barcha turlari yuzasidan hisob-kitoblar hisobga olinadi. Bo'naklarning kelgusidagi mehnat haqi hisobiga berilishi xodimlarning sababi ko'rsatilgan arizasiga asosan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu schyotda quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladigan, ya'ni 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar" schyotining debeti va 4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schyotining kreditida mehnat haqi bo'yicha har oylik bo'naklar hisobga olinadi(3.3.2-jadval).

**4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schyotining
korrespondentsiyasi.**

T/r	Xo'jalik opratsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mehnat haqi hisobidan bo'nak berildi	4210	5010
2	Xodimlarga kelgusidagi mehnat haqi hisobiga berilgan bo'naklar ushlab qolindi	6710	4210

Shunday qilib, fermer xo'jaliklarida xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar", 6720 "Deponentlangan ish haqi" va 4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schyotlarida yuritiladi. 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" schyotining kreditida hisoblangan ish haqi summasi ko'rsatilsa, debetida ish haqidan ushlab qolinadigan summalar aks ettiriladi. Bunda qoldiq kreditda bo'lib, bu fermer xo'jaliklarining xodimlardan qarzini bildiradi. Hisobot davri oxiriga aniqlangan saldo ya'ni qoldiq fermer xo'jaliklarining majburiyati sifatida balansda alohida modda sifatida o'z aksini topadi.

Fermer xo'jaliklarida mehnat va unga haq to'lash bo'yicha hisob – kitoblarni olib borishda har bir hodimga alohida analitik schyot ochilib, ushbu analitik schyotlarda xodimlarga hisoblangan mehnat haqi, mukofotlar va boshqa to'lovlar, mehnat haqidan ushlab qolingan soliqlar, ushlanmalar summasi alohida hisobga olib boriladi.

**3.4. Fermer xo'jaliklarida mehnat haqidan ajratma va to'lovlar hisobini
yuritish xususiyatlari.**

Fermer xo'jaliklarida xodimlarga hisoblangan mehnat haqidan quyidagi ushlanmalar ushlab qolinadi:

- 1.Daromad solig'i.
- 2.Nafaqa fondiga(jamg'armasiga).
- 3.Kasaba uyushma jamg'armasiga.

4.Ijro varaqaralari asosidagi ushlanmalar (aliment,etkazilgan moddiy zarar va h.k.)

5.Oldin berilgan bo'nak summasi.

6.Kreditga olingan tovarlar summasi va h.k.

Yuqoridagi ushlanmalardan daromad solig'i,nafaqa fondiga, ijro varaqaralari asosidagi ushlanmalar majburiy ushlanmalar hisoblanadi.

Daromad solig'i fermer xo'jaliklarida xodimlarga hisoblangan mehnat haqidan quyidagi tartibda ushlab qolinadi:

2014-yildan hisoblangan mehnat haqi summasining minimal ish haqining besh barobariga to'g'ri kelgan qismidan 7,5%, besh barobaridan o'n barobariga to'g'ri kelgan qismidan 16%, o'n barobaridan ortiq qismidan 22%. Fermer xo'jaliklarida xodimlarga hisoblangan mehnat haqidan daromad solig'i ushlab qolinganda Debet 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar", Kredit 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz" buxgalteriya provodkasi beriladi.

Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitob jarayonida xodimlarning byudjet bilan hisob-kitoblari muhim ahamiyat kasb etadi. Xodimlardan daromad solig'i kalendar yili boshidan asosiy ish joyidan olinadigan ish haqi va boshqa to'lovlar bo'yicha har oyda yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan soliq solinadigan yalpi daromad summasidan ushlab qolinadi.

Xodim yil davomida asosiy ish joyini o'zgartirgan taqdirda yangi ish joyidagi buxgalteriyaga joriy yilda maxsus shaklda to'langan daromadlar va ushlab qolingan soliq summalari to'g'risadagi ma'lumotnomani takdim etishi shart. Jismoniy shaxslarnig ish xaqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlari summalaridan soliq qo'yidagi keltirilgan 3.4.1- jadvaldagi shkala asosida undiriladi.

Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq stavkalari(2014 yil uchun)

Jami daromad miqdori (eng kam ish haqi)	Soliq summasi
Eng kam ish haqining 5 barovari miqtsorigacha	Daromad summasining 8,5 foizi
Eng kam ish haqining 5 barovari miqdoridan 10 barovari miqdorigacha	Eng kam ish haqining 5 barovari miqdoridan oshadigan summaning 16 foizi
Eng kam ish haqining 10 barovari miqdoridan va undan yuqori miqdoridan	Eng kam ish haqining 10 barovari barovaridan oshadigan summaning 22 foizi.

Keltirilgan shkala amaliyotda xodimlarning asosiy ish joylaridan olgan daromadlariga soliq solish chog'ida qat'iy ko'llaniladi. O'rindoshlar odatda, xo'jalik sub'ekti buxgalteriyasiga ularning daromadidan eng yuqori (22 %) bo'yicha soliq ushlab qolish haqida ariza topshiraladi. Soliq summaları to'g'risidagi deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha istiqomat joyidagi soliq inspeksiyasi tomonidan hisoblab chiqariladi. Xodimlarning ish haqidan soliq to'lovlari bo'yicha buxgalteriya hisobida 6410-«Byudjet bilan hisob-kitob» schyotida aks ettiriladi.

Pensiya fondiga(jamg'armasiga) fermer xo'jaliklarida xodimlarga hisoblangan mehnat haqi summasidan 2011-yilda 4,5% ushlab qolingani bo'lsa, 2014 yildan boshlab 6,5% ushlab qolinadigan bo'ldi. Nafaqa fondiga ushlab qolingani summaga Debet 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar", Kredit 6520 "Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar" buxgalteriya provodkasi beriladi.

Ijro varaqaralari asosidagi ushlanmalar sudning qaroriga asosan bo'lib,unda mehnat haqi summasidan ushlab qolinadigan summa ko'rsatilgan bo'ladi. Mehnat haqi summasidan aliment summasi ushlab qolinganda Debet 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar", Kredit 6990 "Boshqa majburiyatlar" buxgalteriya provodkasi beriladi.

Xodimning mehnat haqi summasidan korxonaga etkazilgan moddiy zarar summasi ushlab qolinganda Debet 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar", Kredit 4730"Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi" buxgalteriya provodkasi beriladi.

Mehnat haqi hisobidan oldin berilgan bo'nak summasi xodimlarga hisoblangan mehnat haqi summasidan ushlab qolinganda Debet 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar", Kredit 4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" buxgalteriya provodkasi beriladi.

Mehnat haqi hisobidan xodimlarning kreditga olingan tovarlar summasi ushlab qolinganda Debet 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar", Kredit 4710 "Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimning qarzi" buxgalteriya provodkasi beriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Mehnat kodeksi"ga asosan ishlovchilarning mehnat haqidan ushlab qolinadigan ushlanmalar summasi hisoblangan mehnat haqi summasining 50%dan oshib ketmasligi lozim (Sudning ijro varaqalari bo'lmagan hollarda).

Fermer xo'jaliklarida xodimlarga hisoblangan mehnat haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov amalga oshiriladi. Bu majburiy ajratma hisoblanib 2011 yil uchun mehnatga haq to'lash fondining 25% miqdorida belgilangan. Yagona ijtimoiy to'lov uchun ajratmalar hisoblanganda Debet mehnat haqi hisoblanganda debetlanadigan schyotlar, Kredit 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz" buxgalteriya provodkasi beriladi.

Payariq tumani fermer xo'jaliklarida mehnat haqidan ushlanmalar va mehnat haqiga nisbatan ajratmalar bo'yicha hisob-kitoblarning har biri alohida hisobga olib boriladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, mehnat haqidan ushlanmalar paxta tozalash korxonalari xodimlarining mehnat haqidan ushlab qolinadi, uning mahsulot tannarxi yoki paxta tozalash korxonalari faoliyatiga ta'siri yo'q. Mehnat haqiga nisbatan ajratmalar esa hisoblangan mehnat haqiga nisbatan hisoblanib xodimlarining mehnat haqiga ta'siri yo'q, lekin ushbu ajratmalar mahsulot tannarxiga qo'shilib fermer xo'jaliklari faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Amaldagi qonuniyatga muvofiq barcha yuridik shaxslar ijtimoiy sug'urta ajratmalarini ijtimoiy maqsadlarga ajratishi shart. Ijtimoiy sug'urtaga oid vazifalarini bajaruvchi yuridik va jismoniy shaxslar maxsus fondlarga majburiy badallarni to'lovchilar hisoblanadi.

Payariq tumani fermer xo'jaliklari byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga, bandlik ko'maklashish fondi va kasaba uyushmalari federatsiya kengashiga majburiy badallarni to'lovchi hisoblanadi. Bundan tashqari, yollanib ishlaydigan fuqoralarning majburiy sug'urta badallarini hisoblab yozish va ushlab qolish majburiyati, hisoblashning to'g'ri bo'lishi uchun ma'uliyat ularning zimmasiga yuklatiladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi mehnatda moyib bo'lgan va kasb kasalligiga chalinganda ish haqining to'liq miqdorida, boshqa hollarda badallarini to'lagan muddatiga (umumiy stajiga), qaromag'idagi voyaga etmagan bolalarning soni va boshqa xolatlarga qarab, ish haqining oltmish foizidan yuz foizigacha (60-100).

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasining eng kam miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kam bo'lmasligi va nafaqa hisoblab chiqariladigan ish haqi miqdoridan ortib ketmasligi lozim.

Umumiy ish staji 5 yilgacha bo'lsa, ish haqidan 50% to'lanadi, 5 yildan 8 yilgacha bo'lsa 60%, 8 yildan ortiq bo'lsa 80 %, quyidagi hollarda umumiy ish stajidan qat'iy nazar 100% nafaqa to'lanadi:

- agar qaramog'ida 16 yoshga etmagan (o'quvchilar — 18 yshgacha) uch va undan ko'p farzandalri bo'lsa;

- ishlayottan Ulug' Vatan urush qatnashchilariga, baynalminal — harbiylarga, CHernobil AES avariyasi oqibatlarini bartaraf qilish qatnashchilarga, mehnat moyiblari va kasbiy kasal bo'lganlarga;

- homiladorlik va tug'ish bo'yicha.

Shu bilan birga har bir xodimning ish haqidan pensiya fondiga badallar har oyda to'lab boriladi. YOshga doir pensiya sug'urta qilingan xodimlarga umumiy asoslarda erkaklar — oltmish yoshga to'lgan bo'lib, umumiy mehnat staji yigirma beshdan kam bo'lmagan taqdirda, ayollar — ellik besh yoshga to'lgan bo'lib, umumiy mehnat staji yigirma yildan kam bo'lmagan taqdirda tayinlanadi.

Xodimlarnig ijtimoiy sug'urta tashkilotlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblar, ya'ni xodimlarning ish haqidan to'lanadigan badallar kelgusida xodimning baxtsiz

hodisa tufayli mehnatga qobiliyatsizligiga uning va oilasining qaysi miqdorda moddiy tomonidan taminlanib turishi kafolatlanadi. Pensiya fondiga ajratilgan badallar ham kelgusida sug'urta qilingan xodimning nafaqa yoshiga etgandan keyin uning moddiy ta'minoti manbai hisoblanadi va bu sug'urta ajratmalarining majburiy shaklda bo'lishi ham maqsadga muvofiqdir.

4. FERMER XO'JALIKLARIDA MEHNATGA HAQI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

4.1. Fermer xo'jaliklarida mehnat haqi va mehnat haqi fondi tahlil qilishni takomillashtirish

Fermer xo'jaliklarida xizmat ko'rsatishda asosiy o'rinni jonli mehnat omili, ya'ni inson omili muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday fan-texnika taraqqiyotining rivojlangan bosqichida ham inson omilining bo'lishi talab etiladi. Ya'ni, yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish uskunalarini ham inson boshqarishi lozim bo'ladi. Bunday sharoitda fermer xo'jaliklarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganib borish muhim ahamiyat kasb etsada, ularga to'lanadigan mehnat haqining darajasi ham rol o'ynaydi.

Fermer xo'jaliklarida, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining oshishiga, ular tannarxining pasayishiga, foyda miqdorining oshishiga hamda boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarining yaxshilanishi korxonalarda mehnat haqi tahlilini tashkil etilishi va olingan axborotlardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish darajasiga bog'liq. Mehnat va mehnat haqi ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi fermer xo'jaliklari ichki imkoniyatlaridan maksimal foydalanishga, ko'rsatiladigan xizmatlarni bir maromda amalga oshirilishiga va mehnat unumdorligini o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida, mehnat haqini oshirish, aholini turmush farovonligini ko'tarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanishdan taqozo etmoqda. Mehnat ko'rsatkichlari tarkibiga odatda quyidagilar kiradi:

- A) Ish haqi fondi;
- B) Xodimlar soni;
- V) Mehnat unumdorligi;
- G) O'rtacha yillik ish haqi.

Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishida mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilardir:

1. Mehnat unumdorligini o'sish darajasi.
2. Mehnat unumdorligi hisobiga mahsulot hajmini o'sishi.
3. Xodimlar sonini nisbiy kamayishi.
4. Mehnat haqi fondidan nisbiy iqtisod.
5. Mehnat unumdorligi o'sish darajasini mehnat haqini o'sish darajasiga nisbati.

Mehnati haqini tahlil etish orqali fermer xo'jaliklarini xodimlar bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish, ularning tarkibi, tuzilishi, kasbiy mahorati, xodimlarni malakasini oshirish, ish vaqtidan foydalanish, mehnat haqining o'rtacha oylik miqdori ko'rsatkichlariga baho beriladi. Ayniqsa, bunda mehnat haqinining oshishini mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlariga ko'proq e'tibor beriladi. Mehnat va unga haq to'lashni tahlil etishdan maqsad, mehnat unumdorligini oshirish rezervlari hisobiga mahsulot hajmini o'sishini, ish vaqtidan to'liq foydalanish va boshqa omillar evaziga mahsulot tannarxini pasaytirishdan iboratdir.

Bugungi sharoitida fermer xo'jaliklarining mehnat haqi va mehnat fondidan foydalanishni o'rganishda boshqaruv tahlilining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Fermer xo'jaliklarining mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, ularning tarkibi, strukturasi o'zgarishini mehnat unumdorligiga bo'lgan ta'sirini hisoblash va baho berish;
2. Ish vaqtini yo'qotish sabablarini aniqlash va unga baho berish;
3. Mehnat haqini oshirib borish rejasining bajarilishi va dinamikasiga ob'ektiv baho berish;
4. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash;
5. Xodimlar qo'nimsizligiga baho berish;
6. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mehnat haqini oshishining ta'sir etuvchi omillarini aniqlash va ularga baho berish;

7. Bir xodimning mehnat unumdorligini aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;

8. Ish vaqtidan foydalanish va bir soatlik ish unumdorligini o'zgarishini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini o'rganish va hokozolar.

Fermer xo'jaliklarida mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlilining asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Biznes reja ma'lumotlari;
- Mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlarini aks ettirgan 1-T shaklidagi "Mehnat hisoboti" statistik hisobot shakli ma'lumotlari;
- Mehnat haqini hisobi yuritiladigan hisob registrlari va hisobotlari;
- Ish vaqtidan foydalanish, ish vaqti balansi to'g'risidagi hisobot, ishga kelish, ketish to'g'risidagi tabel, ishlab chiqarish normasini bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotnoma va boshqa ma'lumotlar.

Mehnat haqi fondi — bu xodimlarga mehnat haqi uchun hisoblangan va to'lanadigan jami pul mablaglaridir va bunga ta'sir etuvchi omillar esa quyidagilar hisoblanadi:

1. Xodimlar soni;
2. Ish vaqti fondi;
3. Mehnat haqi darajasi.

Mehnat haqi fondi ko'rsatkichini tahlil qilishda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

a) mutloq farq - bu haqiqiy va hisob-kitobga ko'ra yoki o'tgan yillarga nisbatan mehnat haqi fondlari o'rtasidagi farq. Xo'jalik sub'ektining mehnat resurslari va mehnat haqi fondlari ko'rsatkichlarining 2007-2011 yillar davomida o'zgarish dinamikasini quyidagi 4.1.1-jadvalda berib o'tamiz.

4.1.1-jadval

Payariq tumani “Karim bobo” fermer xo’jaligida mehnat haqi va mehnat haqi fondlari ko’rsatkichlarining o’zgarish dinamikasi tahlili*

№	Ko’rsatkichlar nomi	2009	2010	2011	2012	2013	2013yil 2009 yilga nisbatan o’zgarishi, %
1	O’rtacha xodimlar soni, kishi	9	9	11	12	14	155,6
2	Mehnat haqi fondi, ming so’m	7830,0	9223,2	13398,0	19368,0	27132,0	3,5 marta oshgan
3	Bir kishi hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot, mln. so’m	3,3	4,0	4,3	5,2	6,0	181,8
4	O’rtacha oylik ish haqi, ming so’m	72,5	85,4	101,5	134,5	161,5	2,2 marta oshgan

***Manba:** “Karim bobo” fermer xo’jaligini yillik buxgalteriya hisobti ma’lumotlari

Mehnat haqi fondiga ta’sir etuvchi omillar sifatida: xodimlar sonini, ish vaqti fondini va mehnat haqi darajasi kabi ko’rsatkichlarni sanab o’tgan edik. 4.1.1-jadvaldagi ma’lumotlar asosida Payariq tumani “Karim bobo”fermer xo’jaligida 2013 yilda 2009 yilga nisbatan o’tacha mehnat haqi 2,2 martaga oshgan, mehnat haqi fondi esa 3,5 martaga oshgan. Mehnat haqini oshishini mehnat unumdorligiga taqqoslaydigan bo’lsak, shu davrda mehnat unumdorligi 81,8 foizga oshgan, ya’ni mehnat haqi yuqoriroq o’sgan. Bunday holat korxonada ishlab chiqarish hajmini, ya’ni Payariq tumani “Karim bobo”fermer xo’jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmini yuqoriroq sur’atlarda oshishini ta’minlashni taqozo etadi.

Mehnat haqi fondiga ikki omil: ishlovchilarning o’rtacha soni va ishlovchilarning o’rtacha oylik mehnat haqi. Payariq tumani “Karim bobo”fermer xo’jaligida 2009-2013 yilda mehnat haqi fondini tahlil qilganimizda, ushbu omillarning ta’siri quyidagicha bo’lgan (4.1.2-jadval).

4.1.2-jadval

Payariq tumani “Karim bobo”fermer xo’jaligida mehnat haqi fondining tahlili*

№	Ko’rsatkichlar nomi	2009	2010	2011	2012	2013	2013 yil 2009 yilga nisbatan o’zgarishi
1	2	3	4	5	6		7
1	O’rtacha xodimlar soni, kishi	9	9	11	12	14	+5
2	O’rtacha oylik ish haqi, ming so’m	72,5	85,4	101,5	134,5	161,5	+89,0
3	Mehnat haqi fondi, ming so’m	7830,0	9223,2	13398,0	19368,0	27132,0	+19302
4	Mehnat haqi fondini o’zgarishi:						+19302
	a) xodilar soni hisobiga	-	-	-	-	-	+9660
	b) ish haqi hisobiga	-	-	-	-	-	+9642

* **Manba:** Karim bobo fermer xo’jaligini yillik buxgalteriya hisoboti ma’lumotlari

4.1.2-jadvaldan ko’rinib turibdiki, Payariq tumani “Karim bobo” fermer xo’jaligida 2013 yilda 2009 yilga nisbatan mehnat haqi fondi 19302 ming so’mga oshgan. Mehnat haqi fondini 9660 ming so’mi korxonada ishlovchilar sonini oshishi hisobiga oshgan bo’lsa, 9642 ming so’mi o’rtacha bir xodimga hisoblangan mehnat haqining oshishi hisobiga oshgan.

Payariq tumani “Karim bobo”fermer xo’jaligida mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlil qilib, quyidagilarni taklif qilamiz:

-fermer xo’jaligida mehnat unumdorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni bajarilishini ta’minlash lozim. Bu fermer xo’jaligida mehnat haqini oshishini mehnat unumdorligini oshishiga mutanosibligini ta’minlashiga olib keladi;

-fermer xo’jaligida mehnat haqini tashkil etish va xodimlarga mehnat haqi hisoblash hamda ularga oylik maoshlari stavkasini belgilashda, xodimlarning

fermer xo'jaligida ishlab yaiqarishga qo'shayotgan hissasini, malakasini hisobga olish.

4.2. MEHNAT UNUMDORLIGI KO'RSATKICHLARINI HISOBLASH VA TAHLIL QILISH USULLARI

Mehnat unumdorligi – mehnat resurslaridan foydalanishning asosiy ko'rsatkichidir. Mehnat unumdorligi jonli mehnatning samarasi bo'lib hisoblanadi. Mehnat unumdorligi deganda aniq vaqt birligi (1 kishi-soat yoki 1 kishi-kuni) hisobiga etishtirilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hamda xizmat hajmi tushuniladi. Demak, 1 kishi-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot, ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ish miqdori mehnat unumdorligiga misol bo'ladi. Mehnat unumdorligi bevosita va bilvosita ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi bo'lib, aniq vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat yoki bajarilgan ishlar miqdori va hajmi hisoblanadi.

Mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichlari o'z navbatida uch turga bo'linadi:

1. Bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V): Buni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan jami mahsulot miqdorini (Q) jami kishi-soatlarga (T) bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}$$

2. Bir kishi-kuni hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V). Buni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning jami miqdorini (Q) kishi-kunlari (T) jamiga bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}$$

3. Bir ishlovchi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V). Buni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning jami miqdorini (Q) ishlovchilarning o'rtacha soniga (T) bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}$$

Mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichi bo'lib, bir birlik mahsulotni etishtirish uchun sarf bo'lgan vaqt (t) miqdori (kishi-soat, kishi-kuni) hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun jami kishi-soatni, jami kishi-kunini jami mahsulot miqdoriga bo'lish kerak:

$$t = \frac{T}{Q}$$

Mahsulot birligi uchun qancha vaqt kam sarflansa, mehnat unumdorligi shuncha yuqori bo'ladi. Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligini bevosita ko'rsatkichini aksidir.

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga omillarning ta'sir etish xususiyatini hisobga olib, tahlilda omillarning bevosita ishtirokida yuzaga keladigan usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki qaysi usulda aniqlanmasin, mehnat unumdorligi darajasi o'zgarmaydi, bir darajada qoladi, ammo ikkinchi usulda mehnat unumdorligi darajasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rinib turadi, birinchi usulda ularni ko'rish mumkin emas.

Demak, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini jami ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan jami mehnat sarfi ko'rsatkichlaridan foydalanib aniqlash o'rniga, bir birlik xizmat hisobiga to'g'ri keladigan mehnat sarfi ko'rsatkichlaridan foydalanib aniqlash to'g'ri bo'ladi, chunki ushbu ko'rsatkichlar o'z navbatida mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi bevosita omillar bo'lib hisoblanadi.

Hisobot yilidagi mehnat unumdorligi darajasini bazis yilidagi uning (yoki rejadagi) darajasiga solishtirib, oshgan yoki kamayganligi aniqlanadi:

$$(X_1 : T_1) - (X_0 : T_0) = \pm \Delta_{TX}$$

bunda, T_0, T_1 – bazis va hisobot yillarida bir birlik ko'rsatilgan xizmat hisobiga sarf bo'lgan vaqt (kishi-soat, kishi-kuni hisobida);

H_0, H_1 – bazis va hisobot yillaridagi ko'rsatilgan xizmat hajmi.

Δ_{TX} – ikki omil ta'sirida yuzaga kelgan mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichining o'zgarishini bildiradi.

Ushbu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1. Bir birlik xizmat hisobiga sarf bo'lgan vaqtning o'zgarishi hisobiga ($T_1 - T_0$);

2. Jami xizmat darajasining o'zgarishi hisobiga ($H_1 - X_0$).

Ushbu omillarning mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalandik.

Omllarning ta'sirini aniqlashdan oldin «Shartli mehnat unumdorligi» ko'rsatkichini aniqlash zarur. «Shartli mehnat unumdorligi» ko'rsatkichini aniqlash uchun bazis yilidagi xizmat hajmini (H_0) hisobot yilida bir birlik xizmat hisobiga sarf bo'lgan vaqt miqdoriga (T_1) bo'lish kerak:

$$V_{sh} = X_0 : T_1$$

Endi, mehnat unumdorligining o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash mumkin.

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga miqdoriy omilning, ya'ni birlik xizmat hisobiga sarf bo'lgan vaqt (kishi-soat, kishi-kuni)ning o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun, shartli mehnat unumdorligi darajasidan bazis yilidagi mehnat unumdorligi darajasini chegirib tashlash kerak:

$$(X_0 : T_1) - (X_0 : T_0) = \pm \Delta_T$$

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga sifatiy omilning, ya'ni xizmat hajmi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$(X_1 : T_1) - (X_0 : T_1) = \pm \Delta_x$$

SHu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi har doim mehnat unumdorligi darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart.

Tahlilning mazmuni va usullaridan foydalanib, Payariq tumani fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi tahlilini 4.2.1-jadvalda aks ettirdik.

4.2.1 -jadval

**Payariq tumani “Karim bobo” fermer xo’jaligida mehnat unumdorligi
bevosita ko’rsatkichi dinamikasi o’zgarishining omilli tahlili***

T.r	Ko’rsatkichlar	2009 yil	2013 yildagi bir birlik xizmatga mehnat sarfi va 2009 yilidagi xizmat bo’yicha	2013 yil	O’zgari- shi (+,-)
1.	Bir birlik (ming so’m) xizmat hisobiga qilingan mehnat sarfi, kishi-soat.	8,1	8,05	8,0	-0,1
2.	Yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot, (ming so’m)	35,8	58,3	76,8	+ 41,0
3.	1 kishi-soat hisobiga olingan mahsulot, ming so’m Shu jumladan o’zgarishi omillar hisobiga: a) bir birlik xizmat hisobiga qilingan mehnat sarfi miqdorining o’zgarishi hisobiga b) jami xizmat darajasining o’zgarishi hisobiga	42,3	44,8 x x	47,8 x x	+5,5 +3,9 +1,6

***Manba:** “Karim bobo” fermer xo’jaligini yillik buxgalteriya hisobti ma’lumotlari

4.2.1-jadvaldan ko’rinib turibdiki, Payariq tumani “Karim bobo” fermer xo’jaligida 2013 yilda 2009 yilga nisbatan bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan kishi-soatlarni kamayishi va xizmat hajmini oshishi hisobiga mehnat unumdorligi oshgan.

Mehnat unumdorligi bevosita ko’rsatkichlarining 2 va 3 turlarining tahlili ham yuqorida keltirilgan usul bo’yicha amalga oshiriladi.

Endi, mehnat unumdorligining bilvosita ko’rsatkichining tahliliga to’xtalamiz. Mehnat unumdorligining bilvosita ko’rsatkichiga ta’sir qiluvchi omillar bo’lib, uning bevosita ko’rsatkichining o’zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar hisoblanadi. Ushbu omillarning mehnat unumdorligining o’zgarishiga ta’sirini aniqlashda «indeks» usulidan foydalanamiz. Omillarning ta’sirini aniqlaganga qadar mehnat sarfining quyidagi uchta bilvosita bog’lanish ko’rsatkichi hisoblab olinadi:

1. Bazis yilidagi mehnat sarfi ko’rsatkichi:

$$t_0 = T_0 : X_0$$

2. SHartli mehnat sarfi ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun hisobot yilidagi bir birlik xizmat hisobiga qilingan mehnat sarfi miqdorini (T_1) bazis yilidagi jami xizmat miqdoriga (H_0) bo'lish kerak.

$$t_{III} = T_1 : X_0$$

3. Hisobot yilidagi mehnat sarfi ko'rsatkichi.

$$t_1 = T_1 : X_1$$

Shundan keyin mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichini omilli tahlil qilish mumkin.

Bazis yilida xizmat birligi uchun sarf bo'lgan mehnat vaqtini (kishi-soatni, kishi-kunini) hisobot yilidagi bir birlik xizmat uchun sarf bo'lgan mehnat vaqtiga bo'lish orqali mehnat unumdorligini indeksi aniqlanadi, undan 1 koeffitsientni (100 foizni) chegirish orqali umumiy o'zgarishi aniqlanadi: buni quyidagi formula yordamida ifodalash mumkin:

$$\left(\frac{T_0}{X_0} : \frac{T_1}{X_1}\right) - 1 = \pm \Delta_{TX}$$

5.FERMER XO'JALIKLARIDA XAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha qo'yilgan asosiy maqsad - bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi rolidir. Hayot faoliyat xavfsizligi - bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati, ya'ni mehnat jarayonida, dam olishda, uyda hamda sportdagi faoliyatini tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligida hayot faoliyati xavfsizligi o'z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi bo'limlarini qamrab oladi. Hayot faoliyati xavfsizligi tamoyil va usullar asosida: baxtsiz hodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo'yadigan va hal qiladigan vositadir. Hayot faoliyati xavfsizligi - bu har qanday ko'rinishdagi faoliyatga qo'llanishi mumkin bo'lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011 yil 8 fevraldagi «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida»gi buyrug'iga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi. Mazkur Qoidalar o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi tashkilotlarga taalluqlidir.

Ta'lim muassasalari talabalari mehnatidan foydalanish jarayonida mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazorat maxsus vakolat berilgan davlat organlari, mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi tashkilotlari tomonidan saylangan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillar tomonidan amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olishda band bo'lgan ta'lim muassasalari talabalariga ish turlari bo'yicha belgilangan tartibda

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riq berilishi kerak. Bunda ular oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

Ta'lim muassasalari talabalari mehnatidan foydalanish taqiqlanadigan ishlar:

- O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnati qo'llanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari ro'yxatiga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar zararli va noqulay mehnat sharoiti mavjud ishlarga qabul qilinmasligi lozim.

- O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan og'ir yuk normalarining chegarasini belgilash to'g'risidagi nizomga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning belgilab qo'yilgan normadan ortiq og'ir yuk ko'tarishlari va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi.

- Ayollar mehnatidan foydalanish to'liq yoki qisman taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo'lgan ishlar ro'yxatiga muvofiq ayollar zararli va noqulay mehnat sharoitiga ega bo'lgan ishlarga jalb qilinmaydi.

- O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 77-bandiga muvofiq ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi. Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtida bajarishi uchun — ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Mehnat va dam olishga quyidagi talablar qo'yilgan: Tashkilotlarda talabalarining ish vaqti, dam olish vaqti, shuningdek qisqartirilgan ish vaqti qonun hujjatlari talablari asosida tashkilotlarning ichki mehnat qoidalari asosida belgilanadi. Ish vaqtining muddati o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga o'ttiz olti soatdan, o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun esa haftasiga yigirma to'rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanishi lozim. Talabalarni ish vaqtidan tashqari hamda tungi ishlarga jalb qilish qat'iy taqiqlanadi.

Talabalarni dala ishlariga olib borish hamda olib kelishda xavfsizlik talablari: Har bir transport vositasiga joylashtiriladigan o'quvchi va talabalar soni transport vositasining texnik holatidan kelib chiqqan holda rahbariyat tomonidan belgilanishi hamda har bir transport vositasidagi talabalar ro'yxatga olinishi lozim. Har bir transport vositasidagi talabalarga alohida rahbar tayinlanadi. Rahbar ularni nazorat qilib borishi lozim. Bunda talabalarni tashish uchun mo'ljallangan transport vositalaridan, ularning yuklarini olib borishda esa, yuk tashishga mo'ljallangan transport vositasidan foydalanish shart. Transport vositasida talabalarining transport vositasi oynasi hamda boshqa joylaridan qo'l, bosh va boshqa a'zolarini chiqarishlari taqiqlanadi.

Talabalarni vaqtincha yashab turish joylaridan dalaga olib chiqish hamda olib kelishga qo'yiladigan xavfsizlik talablari: Talabalarni dalaga olib chiqish va olib kelishdan oldin rahbar yo'qlama qilishi va ularga bajariladigan ish turlari bo'yicha to'liq tushuntirish, yo'l-yo'riqlar berishi lozim. Talabalar orasida kasal yoki vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotganlar tibbiyot xodimi nazoratidan o'tadi va ularning sog'liklari to'la tiklanguncha dam olish joylarida qoldiriladi. Dalaga chiqadigan talabalar ishning turiga hamda iqlim sharoitiga mos ust-bosh kiygan bo'lishi lozim. Ish olib boriladigan dala yashash joyidan 3 km masofadan uzoqda joylashgan bo'lsa, maxsus transport vositasi ajratilishi kerak. Ish joylariga olib borish va qaytarib kelish faqat kunning yorug' paytida amalga oshirilib, talabalar piyoda harakatlanganlarida yo'ldagi transport vositasining qatnoviga xalaqit bermaslik maqsadida saf bo'lib yurishlari lozim. Saf bo'lib harakatlanishda harakat xavfsizligini ta'minlash va boshqarish maqsadida safning boshida hamda oxirida qizil bayroqchali boshqaruvchilar qo'yilishi lozim. Ish joyiga yetib kelgandan so'ng talabalar ro'yxat bo'yicha ish joylariga taqsimlanishi lozim.

Dala ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari: Talabalar dala ishlarini bajarishdan oldin belgilagan tartibda mavsumiy kiyim-bosh, soz ish qurollari bilan ta'minlanishlari lozim. Dala ishlariga jalb qilingan talabalar hududning rahbari ruxsati bilan uning ko'rsatmasiga asosan ish boshlashlari lozim. Talabalar dala

ishlarini bajarayotgan vaqtida bir-birlaridan kamida 2 m masofada joylashishlari lozim. Talabalar kunning yorug' vaqtida ishlashlari lozim.

Qishloq xo'jaligida mehnat sharoitlarining yaxshilanishi ijtimoiy natijalarga, ya'ni mehnatkashlarning sog'lig'ini yaxshilash, o'z ishidan mamnunlik darajasini oshirish, mehnat intizomini mustahkamlash, mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Payariq tumani fermer xo'jaliklarida, jumladan "Karim bobo" fermer xo'jaligida mehnatga haq to'lash hisobi va tahlilini takomillashtirish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari quyidagi **xulosalar** qilishga imkon berdi:

1. Payariq tumani fermer xo'jaliklarida miqiyosida olib ko'radigan bo'lsak, xo'jalik sub'ektining asosiy maqsadi ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni, uning yuksak natijalarga erishishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Payariq tumani fermer xo'jaliklarida oshirilayotgan islohatlar tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, moliyaviy xolat barkarorligini ta'minlash maqsadida mehnat va texnologik intizomni kuchaytirish uchun har bir xodimning samarali mehnatini talab etadi.

2. Payariq tumani fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi esa mehnat haqining amaliyotda qilingan mehnat xarajatlari mikdori va sifatiga, amaldagi mehnat haqi shakli va tizimiga ko'ra va mehnat haqidan ajratmalar va ushlanmalarni to'g'ri hisoblanishini, mehnat intizomini, xodimlarning ish vaqtidan foydalanishini, ishlab chikarish normalarning bajarilishini, kelgusida mehnat unumdorligini oshirish maqsadida zahiralarini aniqlashda, mehnat haqi fondi xarajatlarining nazoratini taminlash, O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari fondlarga va ijtimoiy sug'urta ajratmalarini to'g'ri hisoblanishini va yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishini taminlaydi.

3. Payariq tumani "Karim bobo" fermer xo'jaligida 2009 – 2013 yillarda ishlovchilarning o'rtacha mehnat haqi 2,2 martaga yoki 89,0 ming so'mga oshgan bo'lsa, fermer xo'jaligining sof foydasi 1,5 martaga yoki 0,9 million so'mga oshgan. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkin bo'ladiki, ishlovchilarning moddiy manfaatdorligi oshgan sari, fermer xo'jaligining oladigan sof foydasi ham oshib borgan. SHuning uchun ishlovchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish choralari qo'rish lozim.

4. Payariq tumani "Karim bobo" fermer xo'jaligida 2013 yilda 2009 yilga nisbatan o'tacha mehnat haqi 2,2 martaga oshgan, mehnat haqi fondi esa 3,5 martaga oshgan. Mehnat haqini oshirishini mehnat unumdorligiga taqqoslaydigan bo'lsak, shu

davrda mehnat unumdorligi 81,8 foizga oshgan, ya'ni mehnat haqi yuqoriroq o'sgan. Bunday holat korxonada ishlab chiqarish hajmini, ya'ni Payariq tumani "Karim bobo" fermer xo'jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmini yuqoriroq sur'atlarda oshishini ta'minlashni taqozo etadi.

5. Payariq tumani "Karim bobo" fermer xo'jaligida 2013 yilda 2009 yilga nisbatan mehnat haqi fondini 19302 ming so'mga oshgan. Mehnat haqi fondini 9660 ming so'mi korxonada ishlovchilar sonini oshishi hisobiga oshgan bo'lsa, 9612 ming so'mi o'rtacha bir xodimga hisoblangan mehnat haqining oshishi hisobiga oshgan.

6. Payariq tumani "Karim bobo" fermer xo'jaligida 2013 yilda 2009 yilga nisbatan bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan kishi-soatlarni kamayishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshishi hisobiga mehnat unumdorligi oshgan.

Fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash hisobi va tahlilini takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni **taklif qilamiz:**

1. Har bir xodimning bajargan mehnat xarajati miqdori va sifatiga ko'ra fermer xo'jaliklarida mehnat haqining hisoblanishini, mehnat intizomini nazorat qilish va mehnat resurslaridan to'g'ri va samarali foydalanishni yo'lga ko'yish.

2. Fermer xo'jaliklarida mehnat haqi fondini sarflarini doimiy nazoratini tahminlash, mehnat haqini oshirib borish uchun ichki imkoniyatlarni aniqlash maqsadida boshqaruv hisobining tamoyillarga mos keladigan hisobot tuzish taklif qilindi.

4. Payariq tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yilda 2007 yillarda mehnat haqini oshishini mehnat unumdorligiga taqqoslaydigan bo'lsak, shu davrda mehnat unumdorligi yuqoriroq o'sgan. Bunday holatda fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish hajmini yuqoriroq sur'atlarda oshishini ta'minlash taklif etildi.

5. Mehnat haqi va mehnat haqi fondini tahlil qilib, quyidagilar taklif etildi:

-fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni bajarilishini ta'minlash lozim. Bu fermer xo'jaliklarida mehnat

haqinini oshishini mehnat unumdorligini oshishiga mutanosibligini ta'minlashga olib keladi;

-fermer xo'jaliklarida mehnat haqini tashkil etish va xodimlarga mehnat haqi hisoblash hamda ularga oylik maoshlari stavkasini belgilashda, xodimlarning ishlab chiqarishga qo'shayotgan hissasini, malakasini hisobga olish taklif etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 30.04.1998.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 21.12.1995.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Buxgalteriya hisobi to'g'risida. 30.08.1996.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida (yangi tahrirda). 26.08.2004.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 22.10.2012. PF-4478.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Mahsulot (ishlar xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom. 05.02.1999. 54-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirligining buyrug'i. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida. 08.02.2011. №7-B.
9. Prezident Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. // Xalq so'zi. 18.01.2014. -№13 (5913).
10. Prezident Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Bosh maqsadimiz — keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // Xalq so'zi, 19.01.2013. - №13 (5687).

11. Prezident Islom Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. // Xalq so'zi, 20.01.2012. №14 (5404).

12. Alikulov A., Qurbonov I., Ibragimov U., Eshmuradov U. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi. – Samarqand: N-Doba, 2009. – 248 b.

13. Abdug'aniyev A. Qishloq xo'jalik yerlaridan to'liq va samarali foydalanish istiqbollari. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2013. -№7. – B. 35-36.

14. Abduvohidov F., Sotivoldiyeva D. Mahsulotlar tannarxi va uning buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari. // Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2011. - №4. – B. 53-55.

15. Aralov X. Dehqon xo'jaliklarining mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2010. -№2. 27-28 b.

16. Гулямова Ф.Г. Самоучител по бухгалтерскому учету. – Т.: «Мир экономики и права», 2004. – 432 с.

17. Gadoyev E.F. va boshq. Buxgalterlar uchun amaliy qo'llanma: II-jildlik. – T.: NORMA, 2010. – 424 b.

18. Do'smurotov R.D., Mengliqulov B.Yu. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. - 392 b.

19. Dehqonchilik madaniyati – fermerlar majburiyati (fermerlar uchun tavsiyalar). // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2013. -№6. –B. 10-13.

20. Ergashev R.X., Xamrayev S.N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2012. – 332 b.

21. Ergashev R.X. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti.– T.: EXTREMUM PRESS, 2010. – 416 b.

22. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005. – 435 b.

23. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. – T.: Sharq, 2004. – 591 b.
24. Niyozov S. Boshqaruv hisobida xarajatlar klassifikatsiyasi. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2012. -№1. – B. 43-44.
25. Pardayev M.Q., Xasanov B.A. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – T.: Cho'lpon, 2012. – 440 b.
26. Samatov G'.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va menejmenti. – T.: Cho'lpon, 2012. – 320 b.
27. Сотиволдиев А. ва бошқалар. Финансовый и управленческий учет. –Т.: ИҚТИСОД-МОЛИЯ, 2012.
28. Tursunov U., Yuldashev B. Fermer xo'jaliklarida xarajatlar hisobi. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2014. -№4. –B. 35.
29. Umurzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Toshboyev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 276 b.
30. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi.– T.: Cho'lpon, 2013. – 312 b.
31. Qudratov T., Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. – T.: VORIS, 2012. – 256 b.
32. Qudratov T. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. – Samarqand: N-Doba, 2010. – 191 b.
33. Qosimov M. Fermer xo'jaliklarining texnologik barqarorligini ta'minlash. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2013. -№12. –B. 17.
34. O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi matbuot xizmati. Islohotlar taraqqiyot va rivojlanishga xizmat qilmoqda. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2014. -№2. –B. 1-2.
35. Семенов В.М. Экономика предприятия. –Санкт Петербург: Питер, 2010. - 416 с.
36. Samarqand viloyat Statistikasi boshqarmasi hisobot ma'lumotlari 2011, 2012, 2013 yillar.

37. Samarqand viloyat Payariq tumani Pasporti, Payariq tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi va statistika bo'limi hisobot ma'lumotlari 2011, 2012, 2013 yillar.

38. Samarqand viloyat Payariq tuman «Karimbobo» fermer xo'jaligi hisobot ma'lumotlari 2011, 2012, 2013 yillar «1-fermer shakli».

39. Internet saytlari:

39.1. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi portali

39.2. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti

39.3. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasining hukumat portali

39.4. www.agro.uz - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi portali.

39.5. www.agriculture.uz - O'zbekiston agroaxborot tizimi portali

39.6. www.samarkand.uz – Samarqand viloyati rasmiy sayti